**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**NIZOMIY NOMIDAGI**
**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**«TABIYOT FANLARI» FAKULTETI**
**«GEOGRAFIYA VA UNI O’QITISH METODIKASI» KAFEDRASI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”
Fakultet dekani
___________E.R.Yuzlikayeva
«____» ___________2014 yil

5140500-«Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari» ta'lim yo’nalishi kunduzgi bo’lim 402-guruh talabasi

**Djurabekova Nozima Abdurashid qizi**ning
**“Toshkent viloyatida agrar ishlab chiqarish tarmoqlari geografiyasi”**
mavzusidagi

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: «Geografiya
va uni o’qitish metodikasi»
kafedrasi katta o’qituvchisi
__________I.N.Islomov

Ilmiy maslaxatchi: «Geografiya
va uni o’qitish metodikasi»
kafedrasi dots., g.f.n
__________ Z.Amanbayeva

«Himoyaga tavsiya etilsin»
«Geografiya va uni o’qitish
metodikasi» kafedrasi mudiri
_______g.f.n. dots. N.R.Alimqulov
«____»___________2014 yil

TOSHKENT – 2014 yil

## MUNDARIJA

KIRISH……………………………………………………………………..3

**I-BOB. AGRAR ISHLAB CHIQARISHNING IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI ………………………………………………………5**

1.1. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy o‘sish sur’atlari va uning dinamikasi……… 5

1.2. Mintaqalarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini barqaror rivojlantirish muammolari……………………………………….…9

1.3. Qishloq xo‘jaligi yer fondining tarkibi va o‘ziga xos xususiyatlari………… 12

**II-BOB. TOSHKENT VILOYATIDA AGRAR ISHLAB CHIQARISHDA RIVOJLANISHNING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI………………………………………………………………16**

2.1. Toshkent viloyatida agrar ishlab chiqarish tarmoqlarini hududiy joylashtirishni takomilashtirish masalalari ………………………………………………..……16

2.2. Toshkent viloyatida qishloq xo‘jaligini rivojlanishi muammolari…………..22

2.3. Toshkent viloyatida iqtisodiy rivojlanish istiqbollari……………………..……29

**III-BOB. TOSHKENT VILOYATI AGRAR ISHLAB CHIQARISH TARMOQLARI GEOGRAFIYASINI TOSHKENT IQTISODIY RAYONI XO‘JALIGI MAVZUSI MISOLIDA O‘QITISH TEXNOLOGIYASI…………………………………………………………...**37

**3.1**. Toshkent viloyati agrar ishlab chiqarish tarmoqlari geografiyasi mavzusini o‘qitishda interfaol metodlarni qo‘llash samaradorligi…………………………...37

**3.2.** O‘tkazilgan dars ishlanmasi va natijalar tahlili………………..………...44

Xulosa……………………………………………………………………..……50

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati…………………………………….………51

Ilovalar……………………………………………………………………...53

# KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Qishloq xo'jaligini isloh etishning asosiy yo'nalishlaridan biri moliya-kredit va soliq sohasidagi islohotlar hisoblanadi. 2004 yildan boshlab davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan mahsulotlarni etishtirishni moliyalashtirishda imtiyozli kreditlash tizimiga o'tkazish tajribasi qo'llanila boshladi. Respublika erlarning 75%ini sho'rlangan erlar tashkil etadi va ularning asosiy qishloq xo'jaligi bozorlariga nisbatan joylashuvi ham bir-biridan jiddiy farq qiladi. Shu sababli qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun erlarni sifati, ball-bonitetiga bog'liq bo'lgan yagona er solig'ini to'lash tizimi asta-sekin joriy etilmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zlarining *"Yangicha fikrlash va ishlash-davr talabi" asarida*"... Qishloq xo'jaligi rivoji, bu sohadagi islohotlarni chuqurlashtirish borasida hokimliklar, vazirlik, idora va tashkilotlar rahbarlarining mas'uliyatini oshirish bugungi kunning talabidir. Qishloqda mulkdorlar sinfini shakllantirish, mulk va erdan foydalanish samaradorligini oshirish, mahsulot ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatdorligini ta'minlash, qo'shimcha ish joylarini tashkil etish orqali, biz xalqimiz turmushini farovon qilishdek oliy maqsadlarimizga erishamiz." deb ta'kidlaganlar. Yuqoridagilardan kelib chiqib xozirgi iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida amaldagi agrar sohani xar tomonlama rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Qishloq xo'jaligidagi islohotlarni olib borish bilan birga uning rivojlanishiga jidddiy ta'sir etayotgan qator muammolar ham mavjud. Bular: qishloq xo'jaligi korxonalariga xizmat qiladigan infratuzilma ob'ektlarining kamligi va ular xizmati sifatining pastligi; sohaga xorijiy investitsiyalar jalb etish darajasining pastligi; agrar soha tarmoq va hududiy tarkibining etarli darajada mukammal emasligi; mahsulotlar etishtirish va qayta ishlash jarayonlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi; mahsulotlarga narx belgilash amaliyotining mukammal emasligi, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'rtasida narx paritetiga etarli darajad amal etilmasligi va hokazolar.

Dehqon xo'jaliklari ham samaradorligi nuqtai nazaridan fermer xo'jaliklaridan sira qolishmaydi. Bu xo'jaliklar asosan chorvachilik sohasida jadal rivojlanmoqda. Tahlillarimiz go'sht ishlab chiqarishda dehqon xo'jaliklarining ulushi (94%) kattaligini ko'rsatmoqda. Sut, tuxum, jun va qorako'l ishlab chiqarishda ham ularning salmog'i mos

ravishda 96,4%; 53,8%; 77,4% va 48%ni tashkil etadi. Kelajakda dehqon xo‘jaliklari zamonaviy qishloq

xo‘jaligi texnolgiyasiga ega bo‘lgan, yuqori darajada mexanizatsiyalashgan fermer xo‘jaliklariga aylanib boradi.

Fikrimizcha, yuqoridagi muammolarning ijobiy ravishda hal etilishi va qishloq xo‘jaligida iqtisodiy jarayonlarning erkinlashuvi respublika qishloq xo‘jaligi rivojlangan mamlakatlar darajasiga olib chiqadi.

**Tadqiqot ob’ekti** etib Toshkent viloyatida mavjud agrar ishlab chiqarish tarmoqlari va uning hududiy tarkibi tanlandi.

Mintaqada agrar ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish va rivojlantirishning omillari va yo‘nalishlari **tadqiqot ishining predmeti** hisoblanadi.

**Tadqiqot maqsadi.** Bozor islohotlarini chuqurlashtirish sharoitida agrar ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishi bilan bog‘liq muammolarni va istiqbolliy yo‘nalishlarini o‘rganishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari.** Qo‘yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi va hal etildi:

– agrar ishlab chiqarishning iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlil qilindi;

– qishloq xo‘jaligida iqtisodiy o‘sish sur’atlari va uning dinamikasi tahlil qilindi;

– mintaqada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini barqaror rivojlantirish muammolari o‘rganildi;

– Toshkent viloyatida agrar ishlab chiqarish tarmoqlarini hududiy joylashtirishni takomilashtirish masalalari o‘rganildi;

– Toshkent viloyatida iqtisodiy rivojlanish istiqbollari aniqlandi.

# I-BOB. AGRAR ISHLAB CHIQARISHNING IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI

## 1.1. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy o‘sish sur’atlari va uning dinamikasi.

Bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida ishlab chiqarishni ilmiy asosda tashkil etish, amaliy boshqarishga majmuaviy yondashishning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Mintaqalarida qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishga erishish aholi turmush darajasini yaxshilashning asosiy omili hisoblanadi[11].

Qishloq xo‘jalik korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini aniqlash va unda mehnat unumdorligi dinamikasi to‘g‘risida ma’lumot muhim nazariy ahamiyatga ega. Qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligini hisoblashning asosiy usullaridan biri bu yalpi qishloq xo‘jalik mahsulot xajmini tarmoqda band bo‘lgan ishchilar miqdoriga nisbati orqali aniqlanadi. Iqtisodiyotda vaqt birligi ichida mahsulot ishlab chiqarish xajmini o‘sishi mehnat sig‘imini pasayishiga olib keladi va aksincha mehnat sig‘imini o‘sishi vaqt birligi ichida mahsulot ishlab chiqarish xajmini kamayishiga olib keladi.

Respublika yalpi ichki mahsuloti dinamikasida bo‘lgani kabi, qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligi dinamikasida ham, ikki davr ajralib turadi: Birinchi davrda qishloq xo‘jalik yalpi mahsuloti 10,9%ga kamaygan bo‘lsa, ikkinchi davrda aksincha 66,6%ga o‘sgan. Mehnat unumdorligini o‘sish davrida moliyaviy zarar bilan ishlayotgan shirkat xo‘jaliklarni fermer xo‘jaliklarga aylantirish yuqori sur’atlarda olib borilgan 2000-2012 yillarida qishloq xo‘jalik yalpi mahsulotini o‘sish sur’ati 1995-2000 yillariga nisbatan yuqori darajada ekanligi bilan xarakterlanadi[30].

Bugungi kunda, qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligi 1995 yil ko‘rsatkichiga nisbatan 110,3%ga 2000 yilga nisbatan 64,7%ga yuqoridir. Mazkur sohada mahsulot ishlab chiqarishning o‘sishi mehnat unumdorligining o‘sishi hisobiga erishilgan. Tarmoqda mehnat qilayotganlar soni 2012 yilda 1995 yildagiga nisbatan 555ming kishiga kamaygan.

Qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqaruvchi turli shaklda xo‘jalik yurituvchi korxonalardagi mehnat unumdorligini tadqiq etish va uni qiyoslash muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Yer resurslaridan samarali foydalanish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksiga, “Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risida”gi, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunlariga er resurslarining, ayniqsa, sug‘oriladigan maydonlarning cheklanganligini hisobga olgan holda, er uchastkalari berishning yagona tartibi belgilandi. Bunda barcha fuqarolar er uchastkalari olish uchun yashash joylaridagi tuman (shahar) hokimligiga murojaat qilishi, tuman (shahar) hokimi er uchastkalari berish (realizatsiya qilish) masalalarini ko‘rib chiquvchi komissiyaning xulosasiga asosan, er uchastkalari berish bo‘yicha qaror qabul qilishi ko‘zda tutilgan[10][9].

**1-jadval**

**Qishloq xo‘jalik korxonalari turlari bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish xajmi va mehnat unumdorligi dinamikasi (1995-2012 yillar)**

| № | | 2012 yil 1995 yilga nisbatan | 2000 yil 1995 yilga nisbatan | 2012 yil 2000 yilga nisbatan |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Yalpi qishloq xo‘jalik mahsuloti | 176,7 | 113.2 | 156 |
| 2. | Bandlik | 84,0 | 0,88 | 0,94 |
| 3. | Mehnat unumdorligi | 210,3 | 127,6 | 164,7 |
| 4. | Qishloq xo‘jalik korxonalari | 16,4 | 68,8 | 25,2 |
| | Bandlik | 0.29 | 0.92 | 0.22 |
| | Mehnat unumdorligi | 156 | 174.7 | 114,5 |
| 5 | Dehqon xo‘jaliklar | 34,3 | 151,6 | 152,9 |
| | Bandlik | 0,74 | 0,85 | 0,87 |
| | Mehnat unumdorligi | 316,6 | 178,4 | 175,7 |
| 6. | Fermer xo‘jaliklar | 557,2 | 221,9 | 701,7 |
| | Bandlik | 585 | 146 | 403 |
| | Mehnat unumdorligi | 266 | 152 | 174,1 |

**Manba:O‘zbekiston Respublikasining 1995-2012 yillar bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari.**

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra tadqiq etilayotgan davrda qishloq xo‘jalik korxonalarida eng yuqori mehnat unumdorligi dehqon xo‘jaliklariga 316,6% ga, ikkinchi o‘rinda fermer xo‘jaliklarda 266% va uchinchi o‘rinda qishloq xo‘jalik

korxonalarida -156,5% to‘g‘ri kelmoqda. Iqtisodiy rivojlanishning so‘ngi etti yilida mehnat unumdorligi darajasi dehqon xo‘jalik korxonalariga -175,7% to‘g‘ri kelmoqda.

Buning asosiy sabablaridan biri bu davrga kelib ushbu turdagi xo‘jaliklarda bandlik darajasi 0,87%ga keskin pasayganligi bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga fermer xo‘jalik korxonalarida yalpi mahsulot xajmi eng yuqori sur’atlarda 701,7%ga o‘sganligi va shunga mos ravishda unda bandlik darajasini o‘sganligi bilan xarakterlanadi. Bu turdagi korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini o‘sishi, unda mehnat unumdorligini 174,1%ga o‘sganligi bilan xarakterlanadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, fermer xo‘jaliklariga ajratilgan er maydonlari va ularning yalpi qishloq xo‘jalik mahsulotidagi ulushi o‘rtasida muayyan nomutanosibliklar mavjud. Yuqoridagi jadvallar ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2003 yilda fermer xo‘jaliklari jami ekin maydonining 37,3 foizini egallagan holda ularning yalpi qishloq xo‘jaligidagi ulushi atigi 14,1 foizni tashkil etadi, xolos. 2012 yilga kelib bu nisbatda sezilarli o‘zgarish bo‘lmadi va jami ekin maydonida fermer xo‘jaliklarning ulushi 82,0% ni va yalpi qishloq xo‘jalik mahsulotidagi ulushi 34,1%ni tashkil etdi. Chorvachilik tarmog‘ida bu ko‘rsatkich yanada pastroq.

Tadqiq etilayotgan davrda barcha kategoriya xo‘jaliklar buyicha mehnat sarfi nisbatida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Agarda 1998 yilda eng yuqori mexnat sarfi nisbati shirkat xo‘jaliklar xissasiga 57.7% to‘g‘ri kelgan bulsa 2007 yilga kelib bu ko‘rsatkich 4%ga tushib koldi. Mexnat sarfi eng yuqori sur’atlarda o‘sganini fermer xo‘jaligida kuzatish mumkin. Ularning umumiy mexnat sarflari xajmi 1998 yil 4.9%dan, 20 yilgacha kelib 81,7%ga o‘sdi. Bu davrda qishloq xo‘jalik mahsuloti ishlab chiqarish uchun sarflangan mexnat sarfi xajmi pasaydi. Bu davrda xo‘jaliklarda jonli mexnat sarfi xissasi pasaydi. Bu bir tomondan qishloq xo‘jaligida iqtisodiy nochor va moliyaviy zarar bilan ishlayotgan shirkat xo‘jaliklar mikdorini 1998 yildan keskin kamayganligiga xam bog‘liqdir. Dehqon xo‘jaligida jon boshiga mahsulot ishlab chiqarishni xajmini yuqoriligining asosiy

omillaridan biri bu ularda bir gektar ekin maydonida etishtirilayotgan mahsulot xajmini yuqoriligidir.

2001-2012 yillarda qishloq xo‘jalik bo‘yicha bir gektar ekin maydonidan olinadigan mahsulot xajmini o‘sish davri bilan xarakterlanadi. Qishloq xo‘jalik buyicha bu ko‘rsatkich 130,2%ni tashkil etdi. Respublikamizda turli qishloq xo‘jalik korxonalari tomonidan bir gektar ekin maydonidan olinadigan mahsulot xajmi nisbati o‘rtasidagi katta differensiatsiyani kuzatish mumkin. Unda eng yuqori ko‘rsatkich dehqon xo‘jaligiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkich buyicha dehqon xo‘jaligi 2011 yilda shirkat xo‘jaligiga nisbatan 9,5 martaga, fermer xo‘jaligiga nisbatan 7,5 martaga va butun qishloq xo‘jaligiga nisbatan 4,7 martaga yuqoridir[12].

Bir gektar ekin maydonidan olinadigan mahsulot xajmi buyicha turli kategoriya xo‘jaliklar o‘rtasida keskin farqni mavjudligining asosiy sabablaridan biri bu ulardagi o‘simchilik va chorvachilik o‘rtasidagi farq bilan xarakterlanadi. 2012 yil ma’lumotlariga ko‘ra qishloq xo‘jalik buyicha chorvachilik 47.3%ni tashkil etdi, bu shirkat xo‘jaligi-13.6%ni, fermer xo‘jaligida – 6.7% va dehqon xo‘jaligida – 69%ni tashkil etmoqda. Dehqon xo‘jaliklarda boshqa turdagi qishloq xo‘jalik korxonalariga nisbatan keskin katta darajadagi farq bu chorvachilik mahsulotlarini ushbu differensiatsiyaga mikdoriy ta’siridan dalolat beradi. Ushbu soha mahsulotining qanchalik darajada yuqoriligi xo‘jalikda bir gektar ekin maydonidan olinadigan mahsulot xajmi darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi. Masalan bir gektar ekin maydonidan olinadigan mahsulot xajmi buyicha dehqon xo‘jaligi shirkat xo‘jaligiga nisbatan 7,5 marta yuqori lekin bu ko‘rsatkichni fakatgina o‘simchilik sohasi bo‘yicha qiyoslaganda farq – 3,7 martani tashkil etadi. Fermer xo‘jaligi buyicha bu ko‘rsatkichlar shuncha mos ravishda 10,6 va 3,7 martani tashkil etadi.

## 1.2. Mintaqalarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini barqaror rivojlantirish muammolari

Iqtisodiy islohotlarni erkinlashtirish sharoitida mamlakatimiz mintaqalari tabiiy-iqlim sharoitiga ko‘ra xilma xil qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish va ularni sanoatda mukammal qayta ishlash natijasida katta miqdorda qo‘shimcha qiymatlar hosil qilish imkoniyatiga ega. Respublikamiz qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini barqaror rivojlantirishning ahamiyati shu bilan bog‘likki, respublikamiz aholisining 2\3 yaqini qishloq joylarda yashaydi, ularning daromodi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish bilan bog‘liq. Yalpi ichki mahsulotning 21,7 foizi, ichki tovar aylanmasining 70 foizdan ortig‘i agrar sektor hissasiga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa, qazilma boyliklari kam uchraydigan mintaqalarda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning ustivor yo‘nalishi - qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini asosli qayta ishlashni muntazam oshirib borish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarib, eksport hajmini oshirishga bog‘liq[16].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlanganlaridek, “Hech shubhasiz, bugungi kunda qishloq xo‘jaligi samaradorligini tubdan oshirish, so‘nggi yillarda paxtachilik, g‘allachilik va meva-sabzavotchilikda mo‘l hosil etishtirish, ishlab chiqarish hajmlarining o‘sishida chuqur o‘ylangan va izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar asosiy omil bo‘layotganini barchamiz yaxshi anglaymiz”[1].

Mamlkatimiz mintaqalarida iqtisodiy islohotlar jadallashtirilishi tufayli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining o‘sishiga erishilmoqda. Ammo, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashning rivojlanish holati past darajada qolmoqda. Ko‘p hududlarda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash texnologiyasining juda eskiligi tufayli har yili sabzavot va mevalarning 20 foizigacha isrof bo‘lmoqda. Qishloq xo‘jaligida ko‘p mehnat va mablag‘ sarflanib etishtirilayotgan mahsulotlarning bir qismi nes-nobud bo‘lib turgan bir paytda, aholining oziq-ovqat va boshqa keng istemol tovarlariga bo‘lgan talabining ma’lum

[1] Karimov I.A. 2006 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007 yilda iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruza. “Xalq so‘zi”. 2007 yil 13 fevral.

qismi import va g‘ayri-qonuniy yo‘llar bilan keltirilayotgan sifatsiz tovarlar hisobidan qondirilmoqda.

Endilikda, mintaqalardagi mavjud ishchi kuchlaridan oqilona foydalanish orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini jadal rivojlantirish asosiy vazifa bo‘lib qolmog‘i lozim.

Qishloq xo‘jaligi xom ashyosini ilg‘or texnika va texnologiyaga asoslangan holda qayta ishlash, oziq-ovqat va keng iste’mol mollarini ishlab chiqarishni rivojlantirish, isrofgarchilikni kamaytirishning asosiy yo‘llaridan biri hisoblanadi. Mintaqalarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni rivojlantirish qishloqlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, qishloq aholisining ish bilan bandligi va ular turmush darajasining o‘sishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish, ularni qayta ishlash va sotish hisobiga shakllanadi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qanchalik ko‘p etishtirib, ularni qancha ko‘p miqdorda qayta ishlashni oqilona tashkil etilsa, qo‘shimcha qiymatlar hosil qilish miqdorining shuncha o‘sib borishiga erishish mumkin bo‘ladi. Bu masalani Toshkent viloyati misolida ko‘rishimiz mumkin.

Mustaqilliq yillarida viloyatning jami sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmida qishloq xo‘jaligi xom ashyosini qayta ishlovchi engil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlarining ulushlari ancha pasayishiga qaramay, bu saholar o‘sish sur’atlari ancha yuqori bo‘ldi. 2012 yilda engil sanoat 2011 yilga nisbatan 153,5%, oziq-ovqat sanoati 116% , iste’mol mollari ishlab chiqarish 121,1% ga o‘sgan.[2]

O‘zbekiston mintaqalari ichida Toshkent viloyati qishloq xo‘jaligi xom-ashyosini qayta ishlash sanoati bo‘yicha respublikamizda oldingi o‘rinlarda turadi. Jumladan, viloyatda uzumni qayta ishlash darajasi (42,1 foiz) bo‘yicha unga qo‘shni joylashgan Sirdaryo (34,5 foiz va Namangan (7,2 foiz) mintaqalariga nisbatan ancha yuqori turadi.

Ammo, Toshkent viloyatida ham qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasi zamon talabidan orqada qolmoqda. Jumladan, mevalarni va ayniqsa sabzavotlarni qayta ishlash darajasi past bo‘lib, mavjud imkoniyatlardan etarli

---

[2] Тошкент вилояти иқтисодиёт бош бошқармаси маълумотлари

foydalanilmasdan kelinmoqda.

20 oktyabr 2008 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oziq-ovqat ekinlari ekiladigan maydonlarni optimallashtirish va ularni etishtirishni ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» farmoni e’lon qilindi.[3] Farmonda respublikada aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini yanada to‘laroq qondirish maqsadida paxta ekiladigan maydonlarni 50 ming gektarga qisqartirish hisobiga boshoqli don, sabzavot, moyli o‘simiklar va boshqa oziq-ovqat ekinlari maydonlarini yanada kengaytirish zarurligi ta’kidlangan.

Toshkent viloyati meva, uzum, sabzvot va polizning yuqori sifatli navlarini etishtirsh bo‘yicha noyob imkoniyatlarga ega. Ushbu ekinlarni etishtirish va ularni qayta ishlash orqali olinadigan mahsulotlar eksportini yanada ko‘paytirish uchun barcha asoslar bor. Buning uchun viloyatdagi mavjud barcha zarur sharoit va imkoniyalardan foydalanib, sahoning samaradorligini oshirish zarur. Bunda viloyaning tog‘ va tog‘ oldi zonasidagi buloq va soy suvlarini tartibga solib sug‘oriladigan maydonlarni kengaytirish hisobiga mevazor va bog‘larni kengaytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, tog‘ yonbog‘rlaridagi lalmikor erlarga ko‘p suv talab etmaydigan takzorlar barpo etish, zig‘ir, kunjut, saflor va boshqa moyli o‘simiklar maydonlarini kengaytirish yuqori samara beradi.

Umuman olganda, Toshkent viloyatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirishni ko‘paytirish va ularni qayta ishlashni barqaror rivojlantirish uchun quyidagi chora - tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi: qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni chuqurlashtirish, raqobatga bardoshli tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan texnologik siklning tugallangan darajasini oshirish; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatida faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘linmalarning texnologik va tashkiliy tizimini o‘zaro muvofiqlashtirish; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarni kichik shaharlar va qishloq joylarida qurilishiga ustuvorlik berish; kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasiga ko‘proq jalb etish; xorijiy investitsiyalarni qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta

[3] “Халқ сўзи” газетаси 22 октябрь 2008 йил

ishlashga yo‘naltirishni rag‘batlantirish; mahsulot tarkibini sifat jihatdan yaxshilash, tovarlarning raqobatbardoshlik darajasini va eksportini oshirish; fermer va dehqon xo‘jaliklarida ekologik toza mahsulotlar etishtirishni rag‘batlantirish[15].

### *1.3. Qishloq xo‘jaligi er fondining tarkibi va o‘ziga xos xususiyatlari*

Yer barcha ishlab chiqarilayotgan boyliklarning manbai ekanligini ko‘p marota e’tirof etilgan. Yer sanoat ishlab chiqarishning ayrim turlari uchun er imoratlar turadigan oddiy baza, qishloq ho‘jaligida esa asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Ya’ni kishilar erga ishlov berish yo‘li bilan ishlab chiqarishga ta’sir etadi. Yer bir paytda mexnat predmeti (mehnat yo‘naltiriladigan mehnat sifatida) va mexnat quroli (erda zarur biologik sharoitlarni tug‘dirish natijasida o‘simliklar rivojlanadi) sifatida qishloq ho‘jaligida yuzaga chiqadi. Yer har bir halqning asosiy boyligidir.

O‘zbekiston Respublikasi 448,9 mln. gektar er maydoniga ega. Respublika qishloq ho‘jaligiga yaroqli er maydonlarining 81% yoki 26,6 mln gektarni yaylov va pichanzorlar tashkil etadi. O‘zbekiston qishloq qishloq ho‘jaligiga yaroqli erlarning 16 foizi xaydalanaladigan erlardir. Mamlakatning lalmikor erlari 6,6 mln gektar, shundan 3,0-3,2 mln gektari haydaladi va ularda lalimi dehqonchilik bilan shug‘ullaniladi. Qolgan qismida namlikning juda kam bo‘lganligi sababli foydalanilmaydi.

Respublika erining bir qismi shaharlar va aholi punktlari, bir qismi transport va komunikatsiyalar, daryo va suv xavzalari bilan band. Yerlar, o‘rmon xo‘jaligi erlari, xarbiy maqsadlar uchun ajratilgan erlar va davlat zahira fondidan iborat. Biz uchun eng muhimi, qishloq ho‘jaligiga yaroqli erlar hisoblanadi. Respublikamizning er manbalari cheklangan va u qishloq ho‘jaligi tarmog‘ida foydalaniladigan resurs sifatida kamayib bormoqda.

Qishloq ho‘jaligida er fondi asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida quyidagi xususiyatlarga ega: Yer tabiatda chegaralangan. Uni insoniyat xohlagancha ko‘paytirish imkoniga ega emas. Demak, yagona to‘g‘ri yo‘l – mavjud er

resurslaridan samarali foydalanishdir. Bundan tashqari sanoatning, kommunikatsiyaning o‘sishi, aholining o‘sishi tabiiy holda bir kishiga to‘g‘ri keladigan er maydoni qisqarishiga olib keladi. Qolaversa, insoniyat erdan to‘g‘ri foydalanmasligi oqibatda ularning qishloq ho‘jaligi oborotidan chiqib ketish hollari ham yuz bermoqda. Taraqqiyotning tuproq erroziyasi, sho‘r bosish, kasalliklarga chalinish kabi salbiy oqibatlarini kamaytirish xar bir davlatning, erdan foydalanuvchilarning birinchi galdagi vazifasidir; Yer – tabiat mahsuli. Bu ham bizning oldimizga qator vazifalar qo‘yadi; Yer abadiy ishlab chiqarish vositasidir; Turli joylarda mavjud er maydonlari turli sifatga, ya’ni unumdorlikga ega. Yerning tabiiy va sun’iy unumdorligi bir biridan farqlanadi. Tabiiy unumdorlik – erning inson aralashuvisiz tabiat tomonidan vujudga kelgan hosil olish qobilyatidir. Inson aralashuvi natijasida vujudga kelgan unumdorlik sun’iy unumdorlikdir. Bu unumdorlikni oshirish imkoniyatlari katta; Yerni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish mumkin emas. Bularning barchasi mavjud erlarda qaysi ekin turlarini joylashtirish, texnikaning qanday turlaridan foydalanish va ishlab chiqarishning hajmi qanday bo‘lishi maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida inkor etib bo‘lmaydigan talablarni keltirib chiqaradi[18].

Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining axborotiga ko‘ra, 1990 yilda O‘zbekistonda aholi jon boshiga o‘rtacha 0,2 ga sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi erlari to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2010 yilda bu ko‘rsatkich 0,15 gektarni tashkil qildi. 2030 yilda esa bugungi kundagi er maydonlari hajmi kamaymagan taqdirda ham, faqat aholi sonining o‘sishi hisobiga aholi jon boshiga 0,12ga maydon to‘g‘ri kelishi kutilmoqda. Bu kelgusida har bir qarich erdan samarali va unumli foydalanishni taqozo qiladi.

Shu o‘rinda, ushbu maqsadlar uchun yo‘naltirilayotgan katta miqdordagi mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish va ularni maqsadli ishlatish, zamonaviy texnologiyalar va texnikani joriy etish borasidagi ishlarni ham tartibga solish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, maxsus davlat dasturi doirasida 2008-2010 yillarda 371,3 mlrd. so‘m mablag‘ o‘zlashtirildi. 143,5 mlrd.so‘m 1615,4 km uzunlikda ochiq kollektor tarmoqlarini, 442 ta meliorativ

quduqlarni, 27 ta meliorativ nasos stansiyalar, meliorativ ob’ektlardagi 690 ta turli gidroinshootlarni rekonstruksiya qilish va qurishga yo‘naltirildi. Bu ishlar natijasida loyihalar hududidagi 740 ming gektar maydonda sug‘oriladigan erlarning meliorativ holati yaxshilandi va barqarorligi ta’minlandi.

Ekinlarni sug‘orishda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng miqyosda qo‘llash bo‘yicha tomchilatib sug‘orish tizimi joriy qilingan maydonlar 5,0 ming gektarga etdi. Tomchilatib sug‘orishni 2011 yilda qo‘shimcha 2,0 ming gektar maydonda joriy etish rejalashtirilgan bo‘lib, bugungi kunga qadar 774 gektarda amalga oshirildi.

Tadbirda dunyo miqyosida agrar munosabatlar doirasidagi vaziyat shiddat bilan o‘zgarayotgan, oziq-ovqat mahsulotlarining bahosi ortib borayotgan, suv toshqini, qurg‘oqchilik kabi tabiat injiqlari natijasida ayrim mamlakatlarda qishloq xo‘jaligiga katta zarar etayotgan, umuman olganda, dunyo oziq-ovqat balansida bir qator nomutanosibliklar yuzaga kelayotgan bir sharoitda mamlakatimiz aholisini oziq-ovqat bilan ta’minlash masalasi bugungi kundagi islohotlarning asosini tashkil qilishi lozimligi ta’kidlandi.

Respublika bo‘yicha 1991 yilda aholi jon boshiga sabzavot ishlab chiqarish 138,6 kilogrammga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2010 yilga kelib bu ko‘rsatkich 225 kilogrammni tashkil qilgan, mos ravishda kartoshka etishtirish 15,1 kilogrammdan 60,5 kilogrammga, meva etishtirish 24 kilogrammdan 60,1 kilogrammga oshgan.

Keyingi yillarda amalga oshirilgan tizimli tadbirlar natijasida 2010 yilda meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish hajmi 1 mlrd AQSh dollariga etkazildi.

Moliya vazirligining axborotiga ko‘ra, respublika qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini yangi zamonaviy texnika vositalari bilan ta’minlashga davlat tomonidan katta e’tibor berib kelinmoqda. Xususan, Moliya vazirligi huzurida “Qishloq xo‘jaligini texnika bilan ta’minlashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘arma”si tashkil etilgan bo‘lib, jamg‘arma qishloq ishlab chiqaruvchilarini lizing asosida texnika bilan ta’minlashga mablag‘ ajratib kelmoqda.

Jumladan, 2010 yilda jamg‘armaning moliyaviy ko‘magida “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” kompaniyasi orqali qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga lizing asosida 1909 ta qishloq xo‘jaligi texnikasi etkazib berildi va shu maqsadlarga jamg‘armadan 80.003,6 mln.so‘m moliyalashtirildi.

Joriy yilning birinchi choragida esa lizing asosida etkazib berilgan 323 ta texnika uchun Jamg‘arma tomonidan 10.950,4 mln.so‘mlik mablag‘ moliyalashtirilgan.

Mazkur mablag‘lar hisobiga ish unumi yuqori hamda moddiy resurslarni tejovchi “Klaas”, “Dominator – 130” “Keys” va “TTZ” rusumli haydov, chopiq, transport traktorlari hamda o‘rim-yig‘im kombaynlari xarid qilingan[24].

Iqtisodiyot vazirligining hisobotiga ko‘ra, qabul qilingan qarorlar, ishlab chiqilgan dasturlar va yaratilgan imtiyozlar natijasida bugungi kunda respublikada 265 ta go‘shtni 396 ta sutni va 166 ta meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari faoliyat ko‘rsatib, respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat sanoatining ulushi 2010 yilda 12,6% ni tashkil etdi.

Tahlillarga ko‘ra, 2011 yilda 547,8 ming tonna meva-sabzavot va uzum, 28,5 ming tonna go‘sht, 412,5 ming tonna sut mahsulotlari sanoat usulida qayta ishlangan.

Bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo‘jaligining barcha tarmoklarida ishlab chikarishni ilmiy asosda tashkil etish, amaliy boshkarishga majmuaviy yondashishning ahamiyati tobora oshib bormokda.

Mintaqalarida qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishga erishish aholi turmush darajasini yaxshilashning asosiy omili hisoblanadi.

Mintaqalarning ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanishni amalga oshirishda amalda respublikaning alohida mintaqa-sub’ektlari darajasida ularning o‘ziga xos shart-sharoitlari hamda bozor munosabatlariga o‘tish bilan paydo bo‘lgan muammolarini hisobga olgan holda, asosan, sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga asosiy e’tiborni qaratish lozim bo‘ladi.

# I-BOB TOSHKENT VILOYATIDA AGRAR ISHLAB CHIQARISHDA RIVOJLANISHNING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI.

## 2.1. Toshkent viloyatida agrar ishlab chiqarish tarmoqlarini hududiy joylashtirishni takomilashtirish masalalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mintaqalar aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabining qondirilishi, sanoat ayrim tarmoqlarining barqaror rivojlanishi, bevosita qishloq xujaligiga bogliqdir. Shu sababli, qishloq xo‘jaligini jadal rivojlantirish hozirgi kunda o‘ta dolzarb hisoblanadi[11].

Mustaqiliq yillarida agrar sahoda islohotlar o‘tkazilmoqda. Qishloq xujaligi samaradorligini oshirish, mamlakatning oziq - ovqat xavfsizligi va ishlab chiqarilgan mahsulotning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini ta’minlash saholarida ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Jumladan, qishoq xo‘jaligi ekin maydonlari tarkibida ancha ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilib, paxta yakka hokimligiga barham berildi, don, sabzovat maydonlari kengaytirildi. Natijada, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi oshmoqda.

Mustaqilliq yillarida Toshkent viloyati qishloq xo‘jaligida ham qator ijobiy siljirlar amalga oshirildi. Jumladan, ekin maydonlari tarkibida 1999-2012 yillar o‘rtasida bashoqlilar salmog‘i 3,3 %, sabzovotlar 0,8% ga ko‘paydi, paxta maydonlari 1,5 %ga kamaydi. Viloyatda o‘tgan davr ichida don etishtirish 1,5, kartoshka – 1,2 sabzovot, poliz, meva, uzum etishtirish o‘rtacha 1, 7 martaga, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqish hajmi 1,3 martaga oshdi. Ammo bu ijobiy ko‘rsatgichlar viloyat aholisining o‘sib borayotgan talablarini qondiraolmasligi tufayli, boshqa viloyatlardan hamda xorijiy mamlakatlardan ancha miqdorda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini olib kelishga sabab bo‘lmoqda. Vaholanki, viloyatning bunday mahsulotlarni etishtirishda tabiiy-iqtisodiy salohiyataridan etarlicha foydalanlmasdan kelinmoqda. Mavjud sug‘oriladigan maydonlar tarkibi hamon dehonchilik madaniyati va mahalliy ishlab chikarish hisobidan aholining ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish talablariga javob bermaydi. Islohatlarni chuqurlatish sharoitida qishloq xo‘jaligini tashkil etish

mexanizmlarini takomillashtirish, er, suv, inson resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishni taqoza qiladi[29].

Qishloq xo‘jaligini oqilona ixtisoslashtirish va uni joylashtirish muammosi, ayniqsa yirik sanoat tarmoqlari rivojlanayotgan, shahar aholisi zich joylashgan va uning qishloq xujaligi mahsulotlariga talablari muttasil oshib boradigan sanoatlashgan hududlar uchun dolzarbdir. Ma’lumki, Toshkent viloyati sanoati rivojlangan hududlarga kiradi. 2012 yilda Toshkent viloyatida (Toshkent shahrini ham e’tiborga olgan holda) 5,8 mln. kishi istiqomat qilgan. Viloyat aholisining umumiy sonidan 1300,6 ming kishi shahar aholisini tashkil etadi. Viloyatda shahar aholisining salmog‘i ko‘pligi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Aholining oziq - ovqat mahsulotlariga, ayniqsa, tashish qiyin bo‘lgan mahsulotlarga bo‘lgan etiyojini qondirish maqsadida qishlov xo‘jaligi asosan oziq-ovqat masulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini talab qiladi.

Toshkent viloyatda mamlakatimizning boshqa mintaqalaridagi kabi qishloq xo‘jaligining ko‘p tarmoqli tizimi vujudga kelgan. Toshkent viloyati o‘zining tuproq - iqlim va boshqa sharoitlari bo‘yicha O‘zbekistonning boshqa viloyatlaridan jiddiy farq qiladi.

Umuman, viloyatning tabiiy sharoiti - vegetatsiya davrining ueunligi, issiq va quyoshli kunlarning ko‘pligi, sun’iy sugorish tizimining rivojlanganligi, sabzavot, meva va uzumning sifatli navlarini etishtirish imkonini beradi.

Viloyatning tog‘li hududlari (Bo‘stonlik, Parkent, Yuqorichirchiq va Ohangaron tumanlari mutlaq balandligining oshishi natijasida vegetatsiya davriniig davomiyligi har 100 m. balandlikka nisbatan o‘rtacha 5 - 7 kunga qisqaradi. Ayrim yillarda bahorgi sovuklar vegetatsiya davri barvaqt boshlanadigan sabzovot, mevali daraxt navlarga jiddiy zarar etkazadi.

Toshkent viloyati sharoitida qishloq xo‘jaligining zonalar bo‘yicha joylashtirilishini takomillashtirishda tuprok – iqlim sharoitlari, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, mulkchilik shakli va fermer xo‘jaliklaridagi o‘zgarishlarni e’tiborga olgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror, erkin bozor iqtisodiyotiga, kuchli demokratik huquqiy davlatni barpo etish maqsadida respublikaning barcha sohalarida, jumladan, qishloq xo'jaligida ulkan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy islohotlar davlat rahbarligida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Dastavval, qishloq xo'jaligida erkin bozor iqtisodiyoti munosabatlarini mustahkam barpo etilishini, yuritilishini ta'minlash qobiliyatiga ega bo'lgan huquqiy asosi yaratilib, rivojlantirilmoqda. Qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlari қуйидагилардир:

- Erdan foydalanish islohoti
- Suvdan foydalanish islohoti
- Mulk islohoti
- Moliya-kredit va soliq islohoti

**Yerdan foydalanish**

➢2004 yildan boshlab barcha qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari er uchastkalaridan foydalanishning ijara shakliga o'tkazildi

➢Yer uchastkalari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga faqat tuman hokimi tomonidan ijaraga berilishi belgilab qo'yildi

➢Yer uchastkalari ijaraga 30 yildan 50 yilgacha berilishi belgilab qo'yildi

➢Yer uchastkalaridan foydalanish huquqini meros qilib qoldirish tizimi joriy etildi

O'z mablag'i hisobidan er o'zlashtirishni rag'batlantirish tizimi

**Suvdan foydalanish**

- Irrigatsiya tizimlarini boshqarishning ma'muriy hududiy prinsipidan havza prinsipiga o'tkazildi

- Respublika bo‘yicha 10 ta irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari va 1 ta Farg‘ona vodiysi bo‘yicha birlashtirilgan dispetcherlik Markaziga ega bo‘lgan magistral kanallari tizimi boshqarmasi tashkil etildi
- Fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash uchun Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari tashkil etish yo‘lga qo‘yildi
- Suv resurslaridan mukammal foydalanishni ta’minlash uchun sohada bozor prinsiplariga o‘tish belgilandi

**Mulk islohoti**

- Davlat mulki tugatilib, jamoa mulkiga aylantirildi
- Qishloq xo‘jaligida mulk “davlat mulki” va “jamoa mulki” (shirkat va jamoa xo‘jaliklari) shaklidan “xususiy mulk” (dehqon va fermer xo‘jaliklari) shakliga o‘tkazilmoqda *(105-ta qorako‘lchilikka ixtisoslashtirilgan shirkat xo‘jaliklari va ilmiy-tadqiqot institutlarning 16-ta tajriba xo‘jaliklaridan tashqari)*
- Jamoa mulki bo‘lgan bog‘ va tokzorlar, chorva fermalari va mollari, texnikalar va boshqa mol-mulklar xususiylashmoqda.

**Moliya-kredit va soliq islohoti**

- Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan mahsulotlarni etishtirishni moliyalashtirishda bo‘naklash tizimidan imtiyozli kreditlash tizimiga o‘tkazildi

- Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini moliyalashtirish uchun kredit uyushmalarini tashkil etish belgilab berildi

- Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun erlarni sifati, ball - bonitetiga bog‘liq bo‘lgan yagona er solig‘ini to‘lash tizimidan tajriba tariqasida Samarqand, Toshkent, Surxondaryo, Andijon, Buxoro va Xorazm viloyatlarida

erning iqtisodiy - normativ qiymatiga bog‘liq bo‘lgan yagona er solig‘ini to‘lash tizimiga o‘tkazildi. 2007 yilda Jizzax, Navoiy va Forg‘ona viloyatlarida qtkaziladi

- Respublikada ishlab chiqarish texnikalarini lizingga berish tizimi joriy etildi
- Fermer xo‘jaliklari uchun imtiyozli kredit tizimi yaratildi
- Yer ijarasi huquqini garovga qo‘yib kredit olish imkoni yaratildi

**Narx-navo islohoti**

- Davlat tomonidan sotib olinayotgan paxta xom ashyosining narxini jaxon bozoridagi narxdan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi
- Davlat tomonidan sotib olinayotgan g‘alla narxini mintaqaviy bozorlardagi narxlardan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi
- Boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini narxi bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan.

Yaratilgan huquqiy asos negizida qishloq xo‘jaligida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy islohotlarning mohiyati nihoyatda muhim quyidagi holatlarni shakllantirishga qaratilgandir:

-qishloq xo‘jaligini erkin bozor iqtisodiyoti talablari asosida boshqarishni barpo etish, takomillashtirish;

-mulkchilikning turli xildagi shakllarini barpo etib, samaralisini rivojlantirish;

-qishloqda bozor mulkiy munosabatlarini barpo etish, rivojlantirish va erkinlashtirish;

-tarmoqda turlicha mulkchilikka asoslangan sub’ektlarni barpo etish, ularga erkin faoliyat ko‘rsatish uchun zarur sharoitlar yaratish;

-qishloqda mulkdorlar sinfini yaratish, ularning mulkiy ongini yuksaltirish;

-barcha turdagi iqtisodiy munosabatlarni chuqurlashtirish va erkinlashtirish;

-aholining daromadining o‘sishini ta’minlash;

-qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish;

-tarmoqda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishda tarkibiy o‘zgarishini ta’minlash;

-aholini, qayta ishlash sanoatini qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan ta’minlashni yuksaltirish, rag‘batlantirish;

-aholini ijtimoiy jihatdan ta’minlanganligini yaxshilash va boshqalar; Yaratilgan huquqiy asos negizida qishloq xo‘jaligida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy islohotlarning mohiyati nihoyatda muhim quyidagi holatlarni shakllantirishga qaratilgandir:

-qishloq xo‘jaligini erkin bozor iqtisodiyoti talablari asosida boshqarishni barpo etish, takomillashtirish;

-mulkchilikning turli xildagi shakllarini barpo etib, samaralisini rivojlantirish;

-qishloqda bozor mulkiy munosabatlarini barpo etish, rivojlantirish va erkinlashtirish;

-tarmoqda turlicha mulkchilikka asoslangan sub’ektlarni barpo etish, ularga erkin faoliyat ko‘rsatish uchun zarur sharoitlar yaratish;

-qishloqda mulkdorlar sinfini yaratish, ularning mulkiy ongini yuksaltirish;

-barcha turdagi iqtisodiy munosabatlarni chuqurlashtirish va erkinlashtirish;

-aholining daromadining o‘sishini ta’minlash;

-qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish;

-tarmoqda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishda tarkibiy o‘zgarishini ta’minlash;

-aholini, qayta ishlash sanoatini qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan ta’minlashni yuksaltirish, rag‘batlantirish;

-aholini ijtimoiy jihatdan ta’minlanganligini yaxshilash va boshqalar;

Qishloq xo‘jaligidagi islohotlarni olib borish bilan birga uning rivojlanishiga jidddiy ta’sir etayotgan qator muammolar ham mavjud. Bular: qishloq xo‘jaligi korxonalariga xizmat qiladigan infratuzilma ob’ektlarining kamligi va ular xizmati sifatining pastligi; sohaga xorijiy investitsiyalar jalb etish darajasining pastligi; agrar soha tarmoq va hududiy tarkibining etarli darajada mukammal emasligi; mahsulotlar etishtirish va qayta ishlash jarayonlarida zamonaviy texnologiyalardan

foydalanish darajasining pastligi; mahsulotlarga narx belgilash amaliyotining mukammal emasligi, sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari o‘rtasida narx paritetiga etarli darajad amal etilmasligi va hokazolar.

Fikrimizcha, yuqoridagi muammolarning ijobiy ravishda hal etilishi va qishloq xo‘jaligida iqtisodiy jarayonlarning erkinlashuvi respublika qishloq xo‘jaligi rivojlangan mamlakatlar darajasiga olib chiqadi[22].

## 2.2. Toshkent viloyatida qishloq xo‘jaligini rivojlanishi muammolari

Toshkent viloyatida qishloq xo‘jaligini rivojlanishi bilan aloqador muammolar dastavval asosiy tarmoq–qishloq xo‘jaligining tarmoqlar va hududiy tarkibi quyidagi masalalar bilan bog‘langan:

– sabzavot–meva–kartoshkani saqlashda foydalaniladigan binolarni qurish;

– dehqon, fermer xo‘jaliklari bilan ular etishtirgan xom ashyoni qayta ishlovchi, navlarga ajratuvchi va idishlarga joylashtiruvchi korxonalar bilan mahsus transport korxonalari o‘rtasida kooperatsiyani kuchaytirish;

– sug‘orma erlarning meliorativ holatini yaxshilash.

Viloyatda jami ekin maydonining 36,5 % i sifati yaxshi erlardan, 46,7 % i sifati o‘rtacha, qolgan 11,9 % i o‘rtachadan past erlardan tashkil topgan. Yerlar sifatining yomonlashishi yildan–yilga hosildorlikning pasayishiga, mahsulot sifatining yomonlashishiga sabab bo‘lmoqda. Shu o‘rinda Toshkent shahri atrofi tumanlarida mavjud er resurslari viloyat bo‘yicha eng sifatli hisoblangan erlardan iboratligini aytib o‘tishimiz lozim. Shunga qaramasdan Zangiota tumanida meliorativ holat qoniqarsiz bo‘lib qolgan er massivlari mavjudligini, ularning hajmi yildan–yilga o‘sib borayotganligini aytib o‘tish kerak. Bunday erlar Zangiota tumanida 672 gektarga, Zangiota tumanida 520 gektarga, Qibray tumanida 469 gektarga teng. Umuman olganda poytaxt shahar atrofida 2000 ming gektar atrofida meliorativ holati yomonlashgan erlar mavjud. Bu viloyatdagi ana shunday erlarning (39,2 ming gektar) 5,3 % ni tashkil etadi. Bir qaraganda bu uncha katta hajmga egamasdek tuyuladi. Aslida 5,3 %–intensiv tarzda

foydalaniladigan erlardan iborat. Shuning uchun ham ana shunday erlarning sifatini yaxshilash shahar atrofi qishloq xo‘jaligini rivojlanishi bilan aloqador dolzarb muammolar qatoridan o‘rin olgan.

Keyingi muhim muammo shahar atrofida qimmatbaho sug‘orma erlar hajmining qisqarishini oldini olish bilan bog‘langan. Bunday erlarning qisqarishi ikki jarayon bilan bog‘langan. Shulardan birinchisi Toshkent–poytaxt shahar maydonining kengayishi, ikkinchisi–qishloq tumanlaridagi sug‘oriladigan erlarda turli xil sanoat, qurilish, transport va boshqa madaniy maishiy ob’ektlarning barpo etilishi bilan bog‘langan.

Toshkent shahrining maydoni 1990 yilda 313,7 $km^2$ ga teng edi. Ushbu ko‘rsatkich 1997 yilda 334,2 $km^2$, 2000 yilda esa 348,0 $km^2$ ga etdi. Mazkur ko‘rsatkich 2008 yilgacha bo‘lgan davrda o‘zgarmadi. Demak Toshkent shahri maydoni 1990–2008 yillarda 34,3 kv kmga yoki 3430,0 gektarga ko‘paydi. Ushbu erlarning asosiy qismi–20,5 kv km (2050 gektar)i yoki 59,8 % i Bektemir tumani hududiga to‘g‘ri keladi, 7,98 kv km (798 gektar)i yoki 23,3 % i Uchtepa tumaniga, 7,9 kv km (790 gektar)i yoki 23,0 % i Sirg‘ali tumaniga qo‘shib berildi. Shu vaqtning o‘zida Sobir Raximov tumanining maydoni 1997–2000 yillarda 2,08 kv km (2080 gektar)ga qisqardi. Shunday qilib, 1990–2000 yillarda Toshkent shahriga viloyat hisobidan 34,3 kv km yoki 3430 gektar er o‘tkazildi.

Ushbu erlarning asosiy qismi Bektemir tumani bilan birga olib kiritildi, qolgan qismi Zangiota tumanidan shaharning Uchtepa va Sirg‘ali tumanlariga olib berildi.

Toshkent viloyati qishloq tumanlarida mavjud er fondi 1990–2011 yillarda 1499,0 ming gektardan 1493,6 ming gektarga tushib qoldi yoki 5,4 ming gektarga qisqardi. Shu jumladan Toshkent shahri atrofi qishloq tumanlari (Qibray, Zangiota, O‘rta Chirchiq)ning er fondi 161,0 ming gektardan 143,5 ming gektargacha qisqardi yoki 17,5 ming gektarga kamaydi. Bunday holatning yuzaga kelishida ma’muriy–hududiy o‘zgarishlarning ahamiyati (Bektemir tumanini tashkil etilishi va uni keyinchalik Toshkent shahri tarkibiga qo‘shilishi) juda katta bo‘ldi. Chunki Zangiota, Qibray tumanlari maydonlarining qisqarishi Toshkent shahri foydasiga

amalga oshirildi. Yaqin kelajakda shunday ma'muriy–hududiy o'zgarishlar Qibray va Zangiota tumanlari maydonlari hisobiga amalga oshirilishi mumkin. Bunday jarayon jahondagi ko'pchilik "millioner" shaharlar atroflari uchun ham xos. Lekin ushbu masala iqtisodiy samaradarlik va ekologik havfsizlikni ta'minlash yuzasidan yondoshilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Poytaxt shahar atrofida er resurslari bilan aloqador keyingi masala ekin maydonlarining o'zgarishi bilan bog'langan.

Toshkent viloyatida 1995–2011 yillar ekin maydonlari 322,6 ming gektardan 339,0 ming gektarga etdi yoki 105,6 % ga ko'paydi. Shu vaqtning o'zida viloyat doimiy qishloq aholisining o'rtacha soni 1303,0 ming kishidan 1505,8 ming kishiga etdi yoki 115,6 % ga o'sdi. Natijada aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi o'rtacha ekin maydonining o'rtacha ko'rsatkichi 0,25 gektardan 0,22 gektargacha qisqardi.

Xuddi shunday holat Toshkent shahri atrofi hududlarida ham kuzatilmoqda. Bu erda qishloq aholisi jon boshiga to'g'ri keluvchi ekin maydoni 1995 yilda 0,19 gektarni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2011 yilda 0,12 gektarga teng bo'ldi, xolos yoki deyarli 1,6 martaga qisqardi. Mazkur jarayon ijobiy baholanishi mumkin emas. Chunki aynan I-sektorga tegishli qishloq tumanlari poytaxt shahar aholisining dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlariga, sanoat korxonalarini esa xom ashyoga bo'lgan talabini qondirishi lozim. Chunonchi, Zangiota tumanida

**2-jadval**

### Toshkent viloyatida jami ekin maydoni va sug'orma erlarning hududiy tarkibidagi o'zgarishlar*

| № | Tumanlalar | 1995 | | | | 2011 | | | | 2011 yil 1995 yilga nisbatan, % da | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Ekin maydonlari | | Sug'oriladigan yerlar | | Ekin maydonlari | | Sug'oriladigan yerlar | | | |
| | | ming ga | % | ming ga | % | ming ga | % | ming ga | % | Ekin maydonlari | Sug'oriladigan yerlar |
| | | | | | | | | | | | |
| 1. | Zangiota | 15,1 | 4,7 | 15,1 | 5,2 | 15,4 | 4,5 | 21,1 | 6,3 | 205,0 | 284,2 |
| 2. | Qibray | 8,5 | 2,6 | 8,5 | 2,9 | 14,2 | 4,2 | 16,2 | 4,9 | 167,1 | 190,6 |
| 3. | O'rta Chirchiq | 30,8 | 9,5 | 28,6 | 9,9 | 29,3 | 8,6 | 30,0 | 9,0 | 95,1 | 104,9 |

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 4. | Yuqori Chirchiq | 23,2 | 7,2 | 21,3 | 7,4 | 25,3 | 7,4 | 22,3 | 6,7 | 109,0 | 104,7 |
| 5. | Bo'stonliq | 11,3 | 3,5 | 5,7 | 1,9 | 13,0 | 3,8 | 11,4 | 3,4 | 115,0 | 200,0 |
| 6. | Parkent | 15,4 | 1,8 | 5,9 | 2,1 | 15,5 | 4,6 | 13,2 | 4,0 | 100,6 | 223,7 |
| 7. | Yangiyo'l | 18,1 | 5,6 | 18,1 | 6,3 | 19,3 | 5,7 | 25,1 | 7,5 | 106,6 | 138,7 |
| 8. | Piskent | 21,0 | 6,5 | 20,4 | 7,0 | 21,8 | 6,4 | 21,9 | 6,5 | 103,8 | 107,3 |
| 9. | Chinoz | 21,6 | 6,7 | 18,0 | 6,2 | 18,6 | 5,5 | 19,5 | 5,8 | 86,1 | 108,3 |
| 10. | Quyi Chirchiq | 33,9 | 10,4 | 33,9 | 11,8 | 35,2 | 10,3 | 34,9 | 10,5 | 103,8 | 102,9 |
| 11. | Oqqurg'on | 25,8 | 8,0 | 25,6 | 8,9 | 26,6 | 7,8 | 25,9 | 7,8 | 99,2 | 101,2 |
| 12. | Bo'ka | 34,1 | 10,6 | 33,7 | 11,7 | 36,0 | 10,6 | 34,1 | 10,2 | 105,6 | 101,2 |
| 13 | Bekobod | 39,3 | 12,2 | 38,3 | 13,3 | 40,0 | 11,7 | 37,8 | 11,3 | 101,8 | 98,7 |
| 14 | Ohangaron | 24,5 | 7,6 | 15,2 | 5,3 | 30,4 | 8,9 | 20,2 | 6,1 | 124,1 | 132,9 |
| | Xammasi | 322,6 | 100 | 288,3 | 100 | 340,6 | 20,6 | 333,6 | 100 | 105,6 | 115,7 |

*Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida ishlab chiqildi.

aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi o'rtacha ekin maydoni tahlil etilayotgan davrda 0,11 gektardan 0,06 gektarga tushib qoldi yoki deyarli ikki martaga qisqardi. Shunga o'xshash vaziyat O'rta Chirchiq va Toshkent tumanlarida ham kuzatilmoqda. Mazkur vaziyatning chuqurlashishi suv masalasining yildan–yilga murakkablashib borayotganligi bilan ham bog'langan. Suv muammosi Zangiota tumanida ayniqsa o'ta dolzarb ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, suv muammosi viloyatning barcha qishloq hududlarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bundan Bo'stonliq va Ohangaron tumanlarining faqat ba'zi–bir hududlari istisno hisoblanadi.

Yuqorida tahlil qilingan vaziyat qishloq tumanlariga xos makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda ham o'zining ifodasini topmoqda. Buning natijasida qishloq xo'jalik mahsuloti keyingi yillarda O'rta Chirchiq va Qibray tumanlarida deyarli o'smadi, Zangiota tumanida esa 2006–2011 yillarda 7,7 % ga qisqardi. Mazkur tumanda qurilish ishlari rejasi ham surunkali tarzda bajarilmay kelinmoqda. Qibray tumanida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar atigi 118,1 % ga teng bo'ldi. Bu viloyat bo'yicha hisoblangan nisbiy ko'rsatkichning yarmiga ham etmaydi.

Demak, viloyat va uning ayrim tumanlarida, shu jumladan Toshkent shahri atrofi tumanlarida er–suv resurslaridan foydalanishning bugungi holati bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq javob bermaydi. Ushbu muammo bilan uzviy tarzda shug'ullanish zarur. Aks holda qishloq joylarda mavjud murakkab vaziyat yana ham murakkabroq tus olishi mumkin. Bu esa dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari samaradorligini va aholi turmush darajasining pasayishiga, oqibat–natijada qimmatbaho sug'oriladigan erlarni qishloq xo'jaligi aylanmasidan chiqarilishiga olib kelishi mumkin. O'zbekistonda 1999–2002 yillarda sug'orma

erlarning umumiy maydoni asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm va boshqa ba’zi–bir viloyatlar hisobiga 4,3 mln gektardan 3,7 mln gektarga tushib qoldi yoki 0,6 mln gektarga qisqardi. Mazkur tendensiya 2002 yildan keyingi davrda ham davom etmoqda. Buning natijasida respublikamizda mavjud sug‘orma erlarning maydoni 2003–2011 yillarda yana 0,1 mln gektarga qisqarib, 3,6 mln gektarga teng bo‘lib qoldi.

Sug‘oriladigan erlarning qishloq xo‘jaligi aylanmasidan chiqarilishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, demografik, geosiyosiy va boshqa nohush oqibatlarga olib kelmoqda. Ushbu jarayon aholi va aholi manzilgohlarining joylashishini o‘zgartirmoqda, eski dehqonchilik rayonlarini yo‘q bo‘lib ketishiga sabab bo‘lmoqda.

Toshkent viloyati va Toshkent shahri atrofi aholisining turmush darajasi ko‘p jihatdan mazkur hududda tashkil etilan ijtimoiy infrastrukturaning holatiga bog‘liqdir. Aholining turmush darajasini ko‘tarish va uning salomatligini yaxshilashda hududning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Toshkent viloyati va ayniqsa Toshkent shahri atrofidagi hududlar O‘zbekiston Respublikasida aholi turmush darajasini yuqoriligi, ularda mavjud ijtimoiy infrastrukturani nisbatan rivojlanganligi bilan ajralib turadi.

Viloyatda 2000–2012 yillarda aholi daromadlarining jon boshiga hisoblangan o‘rtacha ko‘rsatkichlari 5,3 martaga, ish haqi 6,8 martaga, tovar aylanmasi 4,2 martaga, pulli xizmatlar 6,0 martaga o‘sdi. Shunga qaramasdan aholi daromadlari va pulli xizmatlarga tegishli ko‘rsatkichlar mamlakatga xos o‘rtacha ko‘rsatkichdan past ekanligini ta’kidlab o‘tish zarur. Shunga o‘xshash holatni Toshkent shahri atrofidagi qishloq tumanlarida ham kuzatish mumkin.

Toshkent viloyatidagi Zangiota, Qibray tumanlari ijtimoiy infrastrukturaning rivojlanganligiga binoan nafaqat Toshkent shahri atrofida, balki viloyat miqyosida ham keskin ajralib turadi. Aholi turmush darajasining nisbatan yaxshi ekanligini aholi daromadlarida sotsial nafaqalar tarzidagi transfertlar ulushining kamaytirilganidan ham bilish mumkin. Viloyatda ijtimoiy nafaqalar

oluvchi kam ta'minlangan oilalarning ulushi 2000 yilda 7,8 % dan 2006 yilda 5,8 % ga tushib qoldi, moddiy yordam oluvchi oilalar salmog'i ko'rsatilgan davr ichida 11,3 % dan 8,6 % gacha kamaydi. Shu bilan birga Toshkent viloyati xizmatlarni YaMM ulushiga ko'ra O'zbekistonga xos ko'rsatkichdan 12 punktga orqada qoladi. Bu va shunga o'xshash muammoli jihatlar Toshkent viloyati ijtimoiy infrastrukturasining boshqa sohalariga ham xosdir.

Toshkent viloyatida dolzarb bo'lib turgan keyingi muammo–bu aholini ish bilan band qilish muammosidir. Mazkur muammo boshqa qator muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi ham mumkin. Chunonchi kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, xususiylashtirish, qishloq joylarda sanoatni rivojlantirish kabi muammolar shular jumlasidandir.

Hisob–kitoblar Toshkent viloyati yirik va katta, ya'ni alohida ma'muriy maqomga ega shahar (Angren, Olmaliq, Ohangaron, Bekobod, Chirchiq, Yangiyo'l) larda jami viloyat aholisining 24,0 %, mehnat resurslarining 24,8 %, band aholining 26,1 % va rasmiy ishsizlarning 25,0 % mavjud ekanligini ko'rsatmoqda. Demak, shaharlarda aholi ulushi nisbatan past, mehnat resurslari, band aholi va rasmiy ishsizlar ulushi esa nisbatan yuqori ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi. Bunday qonuniyat O'zbekistonning boshqa viloyatlarida ham o'zining amaliy ifodasini topadi.

Toshkent viloyati qishloq joylarida unda mavjud mehnat resurslarining 1127,5 ming kishiga teng qismi yoki 75,2 % to'g'ri keladi. Bu juda yuqori ko'rsatkich. Qishloq joylarda viloyatda jami rasmiy ishsizlarning 75,0 % i yoki 3,0 ming kishi joylashgan. Aslida ishsizlarning soni bundan bir necha marta yuqoridir. Jahon bankining ma'lumotlariga binoan O'zbekistonda ishsizlarning ulushi 7,1 foizdan, qishloq joylarda esa 9,0 foizdan kam emas. Ushbu ko'rsatkichdan foydalangan holda Toshkent viloyati qishloq joylarida salkam 100 mingga teng ishsizlar borligini aniqlash mumkin.

Toshkent shahri atrofidagi hududlarda viloyat miqyosida jami aholining 771,9 ming kishiga yoki 30,1 % i to'plangan. Ushbu ko'rsatkich mehnat resurslari bo'yicha mutanosib tarzda 443,9 ming kishi va 29,9 % ga, band aholi bo'yicha

339,8 ming kishi va 30,2 % ga, rasmiy ishsizlar bo‘yicha 0,9 ming kishi va 22,5 % ga teng.

Shunday qilib, Toshkent shahri atrofi hududlariga viloyatda mavjud aholining 30,1 % i, mehnat resurslarining 29,9 % i, band aholining 30,2 % i va rasmiy ishsizlarning 22,5 % i to‘g‘ri keldi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda Toshkent shahri atrofiga viloyatda mavjud rasmiy va norasmiy umumiy ishsizlarning 40 mingdan ortiq qismi to‘g‘ri kelishini aniqlash mumkin.

Viloyatda rasmiy ishsizlarning nisbatan katta qismlari Bekobod, Pskent, Parkent tumanlariga to‘g‘ri keladi. Toshkent viloyatida mehnat birjalariga ish qidirib murojaat etganlar soni 2006 yilda 20,4 mingni, 2007 yilda 37,2 ming va 2012 yilda 53,9 ming kishini tashkil etdi, shulardan rasman ishsiz maqomini olganlar tegishli tarzda 0,9, 1,0 va 4,0 ming kishidan iborat bo‘ldi. Mehnat birjalariga ish qidirib murojaat qilganlar soni Toshkent shahri atrofi hududlarida 2012 yilda 13,5 ming kishini yoki viloyat bo‘yicha 25,1 % ga teng bo‘ldi.

Toshkent viloyatida ishsizlarni ish bilan ta’minlash masalasiga katta ahamiyat berilib kelinmoqda. Buning natijasida ish bilan ta’minlangan aholi soni uzluksiz tarzda ko‘payib bormoqda. Ushbu ko‘rsatkich 2006 yilda 16,4 ming kishidan 2012 yilda 38,1 ming kishiga etdi yoki ikki martadan ham ortiq o‘sdi. Mazkur ko‘rsatkichlar poytaxt shahar atrofi hududlarida 2,7 ming (16,5 %)dan 9,8 ming (25,8 %)ga etdi. Shunga qaramasdan, hududlarda ish bilan ta’minlash masalasi ijobiy hal qilinmoqda degan xulosa qilishga to‘liq asos yo‘q. Chunki erlarda yopiq mavsumiy ishsizlar soni anchagina. Undan tashqari band aholi tarkibi bo‘yicha ham anchagina tanqidiy mulohazalar bor.

Viloyatda band aholini iqtisodiyot sohalari va tarmoqlar bo‘yicha tarkibi takomillashtirishga muhtoj. Chunki band aholining katta qismi moddiy ishlab chiqarish sohasi va undagi qishloq xo‘jaligiga to‘g‘ri keladi[25].

Toshkent viloyatida band aholining 68,9 % i moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida mavjud. Bu ancha yuqori ko‘rsatkich. Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda moddiy ishlab chiqarish sohasida band aholining 30–35 % i, nomoddiy ishlab chiqarish sohasida esa 65–70 % i mehnat qiladi.

## 2.3. Toshkent viloyatida iqtisodiy rivojlanish istiqbollari.

Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida aniq ifodalangan, maqsadli hududiy siyosatni ishlab chiqish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ayrim ma’muriy bo‘laklar bilan bir qatorda ularning asosida tashkil bo‘lgan va muhim iqtisodiy va ijtimoiy maqomga ega hududlar ham nazarda tutilmoqda. Aholisining soni 1mln kishi va undan ko‘p bo‘lgan poytaxt shaharlar shu jumladan Toshkent shahri atrofidagi hududlar xuddi ana shundaylar qatoriga kiradi.

O‘zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining nisbatlarini ishlab chiqishda hududiy omillarni xar tomonlama hisobga olish masalasiga muhim ahamiyat berilib kelinmoqda.

Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichida hududiy boshqaruv va hududiy siyosatning qonuniy va xo‘jalik–huquqiy asoslari yaratildi. Hududiy masalalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi va boshqa vazirlik va tashkilotlarning qarorlari va farmoyishlari orqali hal etilib borildi.

Bunda davlat hududiy siyosatining asosiy instrumenti bo‘lib, murakkab ijtimoiy–iqtisodiy muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan respublika doirasidagi maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va hayotga tadbiq etish hisoblandi. Shunday maqsadli dasturlar sirasini hududlari aniq ko‘rsatilgan. “Qishloq aholi punktlarini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta’minlanganligini yanada yaxshilash to‘g‘risidagi chora–tadbirlar”, “Qishloq joylarda ijtimoiy va ishlab chiqish infratuzilmasini rivojlantirish”, “Qishloq aholisining mehnat bilan bandligini ta’minlash” kabilar tashkil qiladi.

Shu bilan birga, davlat mustaqilligi yillarida iqtisodiy islohotlar dastavval mamlakatning strategik manfaatlari hamda makroiqtisodiy barqarorlik va institutsional o‘zgarishlar bilan bog‘liq vazifalarning echimini topish doirasida amalga oshirilganini alohida ta’kidlab o‘tish zarur. Ishlab chiqarish kuchlarini tashkil etish va joylashtirishning bugungi kundagi holati mamlakat talablariga

ham, ayrim hududlarning talablariga ham to‘liq javob bermaydi. Eng muhimi, ushbu vaziyat ayrim hududlarning ijtimoiy sohasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda, ekologik noxushlikni ko‘chaytirmoqda, tabiiy–iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishga imkon bermayapti. Bu o‘rinda O‘zbekiston uchun ayniqsa eng qimmatbaho bo‘lgan er–suv va mehnat resurslaridan foydalanish holatining yaxshi emasligi katta tashvish to‘g‘dirmoqda. Respublikada ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanish darajasi past bo‘lgan ma’muriy bo‘laklar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Sirdaryo, Jizzax, Surxondaryo, viloyatlari) bilan bir navbatda qator muammoli shaharlar, shaharchalar (Angren, Chirchiq, Yangiobod va boshq) hamda Toshkent shahri atrofi hududi alohida diqqat– e’tiborga muhtojdir.

Bozor o‘zgarishlarining dastlabki bosqichlarida boshqaruv jarayonida markaziy respublika organlari etakchi rolni o‘ynagan bo‘lsa, hozirgi boshqaruv samaradorligi ko‘p jihatdan markazni qaror qabul qilishda tarmoq darajasidan hududiy darajaga o‘tganligi bilan belgilanmoqda. Chunki, boshqaruvning ayni hududiy darajasi tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishi yakuniy maqsadlariga erishish uchun zaruriy shart–sharoitlar yaratadi.

Ma’lumki, Toshkent viloyati qishloq joylari, ba’zi-bir tumanlarini hisobga olmaganda o‘zining investitsion jozibadorligi bilan ajralib turmaydi. Bu o‘rinda Toshkent shahri atrofi hududlari boshqa hududlardan keskin ajralib turadi. Mazkur hududga jalb etilgan investitsiyalar qiymati 2006 yilda 88,8 mlrd so‘mga (bu viloyat bo‘yicha kiritilgan jami investitsiyalarning 42,2 % ni tashkil etadi) 2012 yida esa 198,9 mlrd so‘mga (41,0 %) teng bo‘ldi. Bir qaraganda investitsiyalarning hajmi kamga o‘xshamaydi (ayniqsa ularning asosiy qismi shaharlarga ham ajratilganini hisobga olsak). Ularning aksariyat qismi mashinasozlik va metalni qayta ishlash, engil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga yo‘naltirildi. Shunga qaramasdan ularning hajmini yanada ko‘paytirish dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, bu o‘rinda aholisi eng ko‘p va eng zich Zangiota tumanining iqtisodiyotidan investitsiyalarning etishmasligi yaqqol nazarga tashlanadi. Ushbu tumanlarda mehnatni ko‘p talab etuvchi korxonalar yaqin 5-6 yilda barpo

etilmagan. Buning uchun mazkur tumanlarga ajratilayotgan investitsiyalar hajmi taqqoslama narxlarda 2010-2015 yillarda 3-4 marotaba oshirilishi zarur.

Toshkent viloyati va ayniqsa Toshkent shahri atrofi hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bugungi kunning va yaqin istiqbolning dolzarb yo‘nalishlaridandir.

Toshkent viloyatida 2012 yilning 1 yanvar xolatiga nisbatan ro‘yxatdan o‘tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 7947 ni tashkil etdi. Bu viloyatda mavjud (41570 ta) shunday korxonalarning 22,8 % ga teng. Lekin ularning asosiy qismi (93,4 % i) mikrofirmalardan iborat. Ularda 78,0 ming kishi mehnat qiladi. Kichik korxonalarda band bo‘lganlar soni 20,6 ming kishiga teng. Shunday qilib, Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlikda salkam 100 ming kishi band, shuning 22,4 % i (21,9 ming kishi) Toshkent shahri atrofi hududlariga to‘g‘ri keladi. Toshkent shahri atrofi hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda band bo‘lganlar sonini (hududning iqtisodiy va geografik salohiyatini hisobga olgan holda) 2010 yilda 30 ming kishiga, 2015 yil boshida esa 50 ming kishiga etkazish mumkin. Ushbu vazifani bajarishda ayniqsa Zangiota va Qibray tumanlari salohiyatidan foydalanish samarali bo‘ladi.

Toshkent shahri atrofi qishloq hududlari iqtisodiy va ijtimoy rivojlanishida hudud maydonining barqaror tarzda o‘zgarmasligi juda muhim rol o‘ynaydi. Lekin hayotda hech qachon va hech qaysi poytaxt shahar atrofidagi maydonga xos ko‘rsatkichlarning o‘zgarmay turishi ko‘zatilmagan. Buni dunyodagi eng yirik Tokio shahri misolida ham, Mexiko misolida ham, aholisining soni uncha katta bo‘lmagan boshqa poytaxt shaharlar misolida ham ko‘rish mumkin.

Toshkent shahri maydoni uni o‘rab turgan hudud hisobiga salkam 20 yil davomida 0,138 ming kv km ga o‘sdi. Ushbu tendensiya yaqin va o‘zoq kelajakda ham davom etishi aniq. Chunki shahar hozirgi vaqtda uy-joy va kapital qurilish olib borish uchun qo‘shimcha maydonga ega emas. Shaharda aholi ro‘yxati tizimi liberallashtirilsa, unda “qo‘shimcha maydon” muammosi yana ham murakkablashadi. Chunki hozir yangi sanoat korxonalarini barpo etish, uy-qurish uchun qo‘shimcha maydonlar etarli emas.

Prognoziga binoan Toshkent shahri maydoni asosan shimoli-sharq va g'arb tomonlar hisobiga ko'payishi mumkin. Binobarin, shaharning shimoliy tomonida Toshkent issiqlik elektr stansiyasi o'ziga xos chegara vazifasini bajaradi, shimoli–g'arbiy tomoni Qozog'iston hududiga etay deb qolgan, sharq tomondagi tabiiy chegara–Chirchiq daryosidan kesib o'tgan shahar maydoni O'rtachirchiq tumani hududiga taqalib qolgan, janub tomonda Otchopar buyum bozori va ularga tegishli infratuzilma ob'ektlari shahar yo'li ustida turibdi.

Demak, shahar maydoni shimoli–sharq tomonda Qibray tumani va g'arbda Toshkent tumani hududlari hisobiga kengaytirilishi mumkin. Lekin bu yo'nalishlar ham jiddiy kamchiliklarga ega. Shimoli–sharq tomonda Qibray tumani markazi Qibray shaharchasi poytaxtning yonginasida joylashgan. Poytaxt shaharning g'arbiy tomonida esa murakkab ichimlik suvi muammosi ko'ndalang bo'lib turibdi. Shunga qaramasdan, ishda Toshkent shahri atrofi hududini poytaxt shahar maydonini kengayishi hisobiga 2025 yilgacha bo'lgan davrda shimoli- sharqiy tomoni hisobiga 0,05 ming kv km ga, g'arbiy tomoni hisobiga 0,05 ming kv km ga

**1-rasm. Toshkent viloyati iqtisodiy xaritasi.**




qisqarishi nazarda tutilmoqda. Ana shundan keyin shahar atrofiga viloyat hududining 0,6 % i to‘g‘ri keladi.

Shahar atrofi hududining istiqbolda rivojlanishi ko‘p jihatdan qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining ixtisoslashuviga bog‘liqdir. Darhaqiqat o‘sib borayotgan aholi hamda sanoat ehtiyojlarini qishloq xo‘jaligi xomashyosi va mahsuloti bilan ta’minlash–bu o‘ta dolzarb ham iqtisodiy ham ijtimoiy masala hisoblanib, uni amalga oshirishda ixtisoslashuv xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda Toshkent shahri atrofi hududlarida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida dehqonchilik tarmog‘i etakchilik qiladi. Uning hissasiga 2012 yilda viloyat doirasida yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotining 59,8 % i, poytaxt shahar atrofida esa 71 % i to‘g‘ri kelgan.

Toshkent shahri atrofi hududlarida ixtisoslashuv indeksi viloyatda 1,0 ga, Toshkent shahar atrofida esa 2,7 ga teng bo‘lgan*. Poytaxt shahar atrofi hududlarining dehqonchilik tarmoqlarida sabzavotchilik va kartoshka etishtirish asosiy o‘rinni egallaydi.

*Ixtisoslashuv indeksi quyidagi formula orqali topilgan:

$Is = \frac{Pvx}{\mathbf{R}_{vo}} : \frac{Px}{\mathbf{R}_o}$, bu erda

Is- ixtisoslashuv indeksi,

Rvx – rayonda realizatsiya qilingan ma’lum turdagi mahsulot qiymati,

Rvo – viloyatda realizatsiya qilingan ma’lum turdagi mahsulot qiymati.

Rx – rayonda realizatsiya qilingan barcha turdagi mahsulot qiymati.

$R_o$ – viloyatda realizatsiya qilingan barcha turdagi mahsulot qiymati.

Agar $Is \geq 1$ bo‘lsa, unda ma’lum turdagi mahsulot etishtiruvchi tarmoq ixtisoslashgan hisoblanadi.

Bunda sabzavot ekinlarini mavjud issiqxonalarda etishtirish orqali katta foyda olindi. Toshkent viloyatida 2012 yilda jami 1716090,9 tonna sabzavot etishtirildi. Shundan 507027,5 tonnasi yoki 42,5 % i poytaxt shahar atrofiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek 167,0 tonna limonning salkam 120 tonnasi (71,8 % i), 6337,0 ming dona gul ko‘chatlarining 5566 mingtasi (87,8 %), 68723, 0 ming dona sabzavot ko‘chatlarining 90 % dan ziyod qismi aynan Toshkent shahri atrofi hududlarida etishtirilgan. Bu o‘rinda ayniqsa Toshkent, Zangiota va Qibray tumanlari keskin ajralib turadi. E’tiborga loyiq jihati shundan iboratki, Toshkent shahri atrofi hududlarida dehqonchilik ekinlarining aksariyat qismi dehqon xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keladi. Dehqon xo‘jaliklarining sabzavot va kartoshka etishtirishdagi hissasi 2012 yilda 56,7 % ga, fermer xo‘jaliklarining hissasi–41,0 % ga, qishloq xo‘jalik korxonalarining hissasi esa atigi 2,3 % ga teng bo‘ldi.

Istiqbolda Toshkent shahri atrofi hududlarida dehqonchilik tarmoqlari qabul qilingan ixtisoslashuvga asoslangan holda rivojlanishda davom etadi. Faqat tabiiy gaz narxining oshishi va undan foydalanish hajmini (ko‘proq eksportga chiqarilayotganligi sababli) limitlashtirilganligi sababli, issiqxonalar soni keskin qisqaradi. Buning natijasida issiqxonalarda gul, limon va ko‘chat etishtirish hajmi ham kamayadi. Ularning o‘rniga kartoshka va piyoz etishtirish hajmi oshadi.

Toshkent shahri atrofi chorvachilik mahsulotlari, ayniqsa sut va tuxum etishtirishda ham ajralib turadi. Viloyat bo‘yicha 2012 yilda etishtirilgan 199,4 ming tonna go‘shtning 40 % i, 688,7 ming tonna sutning 1/3 qismi va 1140,6 mln dona tuxumning deyarli yarmi Toshkent shahri atrofi hududlariga to‘g‘ri keladi. Ushbu mahsulotning asosiy qismi dehqon xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan. Kelajakda Toshkent shahri atrofi hududlarida mavjud chorvachilik ixtisoslashuvi o‘zining bugungi kundagi mavqeini saqlab qolishi maqsadga muvofiqdir[28].

Shunday qilib, Toshkent viloyatining istiqboldagi rivojlanishi va muammolarini tahlil etish natijasida quyidagilarni ta’kidlash zarur:

1. Toshkent viloyati, yuqorida ta’kidlab o‘tkanimizdek katta tabiiy-resurs, inson, sanoat va qishloq xo‘jaligi salohiyatiga egadir, bu imkoniyatlardan samarali foydalanish xalq xo‘jaligining katta ahamiyatga ega bo‘lgan muammolaridan hisoblanadi. Tahlillarda ko‘rsatilishicha biz o‘rganayotgan hududda sifati yomon erlar respublikaning boshqa hududlariga nisbatan uncha katta hajmga ega emas. Ma’lumki Toshkent shahri maydonini kengaytirilishi (Toshkent shahri maydoni 34,3 km$^2$ yoki 3430 gektargacha kengaytirildi), turli xil maishiy ob’ektlarning barpo etilishi qimmatbaho qishloq xo‘jaligi erlarining qisqarishiga olib kelmoqda (Toshkent shahri atrofi tumanlarida er fondi 17,5 ming gektarga kamaydi). Viloyatda aholi sonining o‘sishi tufayli aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi ekin maydonlarining o‘rtacha ko‘rsatkichi 0,25 gektardan 0,22 gektargacha qisqardi (shahar atrofi tumanlarida 0,19 gektardan 0,12 gektarga tushib qoldi). Undan tashqari suv muammosi aynan birinchi sektorda dozarb ahamiyat kasb etishligini alohida ta’kidlab o‘tish zarur.

2. Toshkent viloyati, ayniqsa shahar atrofi tumanlari respublikada aholi turmush darajasining yuqoriligi va ijtimoiy infrastrukturaning nisbatan rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Shahar atrofi tumanlari gaz bilan deyarli yahshi ta'minlangan, ammo ulardan foydalanishni to'g'ri yo'lga quyish dolzarb muammo hisoblanadi. Shuningdek aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash muammosini ham hal etish talab etiladi.

3. Shahar atrofi tumanlarida mehnat resurslarini ish bilan ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri, ishsizlarni nomoddiy ishlab chiqarish sohalariga yo'naltirishdir.

4. Toshkent viloyati sanoat tarmog'ining rivojlanganligi bo'yicha respublikada etakchilik qiladi. Ammo sanoat mahsulotlarining katta qismi viloyatdagi yirik shaharlar hissasiga to'g'ri keladi. Viloyat tumanlari ichida shahar atrofi tumanlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo'yicha etakchilik qiladi. Shahar atrofi tumanlarida ularda mavjud iqtisodiy-demografik vaziyatdan kelib chiqqan holda, xorijiy investitsiyalar hisobidan birqancha sanoat korxonalari barpo etish maqsadga muvofiqdir.

5. Viloyatda jumladan shahar atrofi tumanlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi hissasi birmuncha yuqori ekanligini bilish mumkin. Lekin uni yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

6. Shahar atrofi xo'jaligini rivojlantirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishda 2018 yilgacha bo'lgan prognozlarga va iqtisodiyotning rivojlanish yo'nalishlariga asoslanildi.

# III BOB. TOSHKENT VILOYATI AGRAR ISHLAB CHIQARISH TARMOQLARI GEOGRAFIYASINI TOSHKENT IQTISODIY RAYONI XO'JALIGI MAVZUSI MISOLIDA O'QITISH TEXNOLOGIYASI.

## 3.1. Toshkent viloyati agrar ishlab chiqarish tarmoqlari geografiyasi mavzusini o'qitishda interfaol metodlarni qo'llash samaradorligi.

O'zbekiston taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlariga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, texnika va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini keng

joriy etishda pedagoglarning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir pedagog ta’lim-tarbiyaning qaysi yo‘nalishida faoliyat olib borishidan qat’iy nazar o‘z vazifasini talab darajasida bajarishi uchun zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari hamda ulardan ta’lim jarayonida samarali foydalanish, bilim va axborotlarni ta’lim oluvchilarga to‘g‘ri etkaza bilish, mashg‘ulotni mazmunli tashkil etish malakalariga ega bo‘lishi zarur. Geografiya ta’limi jarayonida turli xildagi pedagogik texnologiyalardan foydalanish bugungi kundagi davr talabidir. Biroq bu texnologiyalarda qo’llaniladigan usullarni to’g’ri tanlash, vaqt jihatidan samarali taqsimlash va bu jarayonni loyixalash ko’nikma hamda malakalarini shakllantirish o’qituvchilar uchun muxum ahamiyatga ega. Quyida umumta’lim maktablari 8-sinf “O’zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi” fanini o’tishda samarali qo’llaniladigan ba’zi bir pedagogik texnologiyalar va usullarga qisqacha to’xtalamiz.

«Pinbord» texnologiyasi orqali o’tiladigan dars mashgulotida munozara yoki o’quv suhbati amaliy usul bilan bog’liq holda olib boriladi. Ushbu texnologiya natijasida o’quvchilarning fikrlash qobiliyati, munozara yuritish, muloqot qilish madaniyati takomillashadi, fikrlarni tizimli ifodalash, unga mantiqiy yondashish shu bilan birga yozma bayon etish malakasi rivojlanadi. Ushbu texnologiyadan “O’zbekistonning tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari”, “O’zbekiston milliy iqtisodiyotining tuzilishi”, “Aholi va aholi manzillari” mavzularida foydalanish yaxshi natija beradi.

“Bumerang” texnologiyasidan “O’zbekistonning tarmoqlararo majmuasi”, “Yoqilgi sanoati”, “Ko’mir sanoati”, “Elektroenergetika”, “Qora va rangli metallurgiya”, “Qimmatbaho va og’ir metallar” mavzularida foydalanish maqsadga muvofiq. Geografiya darsi jarayonida «Skarabey» interfaol ta’lim texnologiyasidan foydalanish natijasida o’quvchilar o’z fikr-muloxazalarini izchil bog’lay oladilar, ularda mantiqning kuchayishi va xotiraning rivojlanishi vujudga keladi. Fikrlarini ochiq va erkin ifodalash imkoniga ega bo’ladilar. O’quvchilarda mavzu mazmuni hakida aniq tushuncha va tasavvur hosil bo’ladi, turli fo’n va ular orasidagi bog’likliklarni to’g’ri tavsif qilish malakasi takomillashadi. Texnologiya

orqali o’quvchilar faolligi ortadi, mavzuni o’zlashtirishga ijodiy yondashiladi, o’z qobiliyatlarini to’g’ri baholash imkoniyati yuzaga keladi. “Skarabey” texnologiyasi asosida “Agrosanoat majmuasi”, “Yengil sanoat”, “Xalqaro iqtisodiy aloqalar” mavzularini o’rganish o’zining samarasi oldindan kafolatlangan natijalarini beradi. Geografiyadan murakkab va muammoli mavzularni o’rganish jarayonida “Beyep” texnologiyasidan foydalanilganda mavzularning qismlari bo’yicha axborot beriladi va shu bilan birga, ularning har biri alohida muhokama qilinadi. Jumladan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari aniqlanadi. Bu texnologiya texnikaviy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga, egallangan bilimlarni yozma va ogzaki shaklda qisqa bayon etishga, o’z fikr-muloxazasini isbotlashga imkoniyat yaratadi. Ushbu texnologiya orqali har bir o’quvchi, kichik o’quvchilar guruxi va umumiy gurux o’quvchilari mavzu mazmunini muxokama qilishda faol ishtirok etadilar. “Beyep” texnologiyasi ham mavzuni o’rganishning turli bosqichlarida qo’llaniladi. “Sanoatni hududiy tashkil etish hamda joylashtirish shakllari”, “Qishloq xo’jaligining mintaqalar bo’yicha ixtisoslashishi”, “Xizmat ko’rsatish sohalari geografiyasi” kabi mavzularni o’rganish jarayonida ushbu texnologiyani qo’llash mumkin. Ta’limning samarasi o’quvchilarning bilimlari va qobiliyatlari qadrlanganda, oquv jarayonida do’stona muxit yaratilib, ularni jalb etish va qayta aloqani yo’lga qo’yish ta’minlash ancha yuzaga chiqadi. Demak ta’limda o’quvchilarning extiyojlarini xisobga olish muximdir. Agar o’quvchilar extiyojlari qondirilmasa yoki dars xaddan ziyod zerikarli, tushunarsiz bo’lsa, unda guruxda notinch harakat, sukunat, etiborsizlik, taranglashgan yoki bo’shashgan holatlar yuzaga kelishi mumkin. O’qitishning interfaol usullari va vositalari, o’quvchilarni tashqi faollikka undash vositasidir. Bunda shuni e’tiborga olish lozimki, katta yoshli o’quvchilar: o’qiganlarining -10 foizini, eshitganlarining -20, ko’rganlarining- 30, ko’rib, eshitganlarining-50, gapirayotganlarining-80, gapirib bajarayotganlarining -90 foizini eslab qolish xususiyatiga ega. Shuningdek, o’rgangan materiallarini boshqalarga uzatish jarayoni quyidagicha kechadi:

| Ma’lumotlarni uzatish uslubi | 3 soatdan so’ng | 3 kundan so’ng | 1yildan so’ng |
|---|---|---|---|
| 1. Ma’ruza-xikoya | 70 foiz | Yuz foiz | 30 foiz |
| 2. Shou-namoyish | 72 foiz | 20 foiz | 13 foiz |
| 3. Ma’ruza-namoyish | 85 foiz | 65 foiz | 33 foiz |
| 4. Xikoya, namoyish va amaliyot | 98 foiz | 95 foiz | 85 foiz |

O’quvchilarning 75%i –ko’rish orqali (vizual), 13%i - eshitish orqali (audial), 12%i - his etish, amaliyotda qo’llab ko’rish (kinestetik) orqali axborotlarni qabul qiladilar va ishlov beradilar.

"Vizuallar" - axborotlarni yozma tarzda, rasmlar, jadvallar, filmlar va slaydlar ko’rinishida yaxshiroq idrok etadilar.

”Audiallar"- tinglab, savollarga javob berib, lukma tashlab o’rganadilar va eshitgan narsalarini juda yaxshi eslab qoladilar.

"Amaliyotchilar"–ko’rgan va eshitganlarini amalda ishlatib, xis etish organlaridan foydalanib o’rganadilar. Oqitishning interfaol usullari bularning hammasini nazarda tutadigan turli tuman uslublardir. Ularni quyidagicha guruxlash mumkin: Kognitiv uslublar: kichik ma’ruzalar va taqdimotlar, aqliy hujum, ochiq munozara, kichik guruxlardagi munozara, savol-javoblar, misollar asosida o’qitish (Case stadi), video yozuv, matn, chizma va x.k. orqali taqdim etilgan muammoni tahlil etish va hal qilish va boshqalar. Modellashtirish (amaliy o’yinlar yoki ish o’yinlari): namoyish etish va ro’l bajarish. O’yinlar, ijodiy faoliyat: har xil g’ayratni oshiruvchi mashqlar, ijod, rasm, kontur chizish va x.k. Gurux a’zolarini yaqinlashtirishga xizmat qiladigan tanishish va boshqalar. Turli uslublar va o’qitish vositalaridan foydalanish ta’lim berishga eng samarali yondashuv hisoblanadi. Bu yondashuv o’quv jarayoniga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda shu yo’l orqali etuk avlodni tayyorlashni taqozo etadi. Xar bir dars, mavzu va o’quv fanining o’ziga hos yondashuvi bor, ya’ni o’quv jarayonida muammoli, modulli, hamkorlik

munosabatlarini qaror toptirishga qaratilgan texnologiya turlariga mos interfaol metodlarni rang barang tanlab, joriy etish geografiya ta'limi samaradorligini ta'minlashda muxim axamiyat kasb etadi. Buni biz chizma ko'rinishda quyidagicha ifoda etishimiz mumkin.

O'qituvchi________________________________Talaba




Interfaol usulidagi **«Kichik guruxlarda ishlash»** mashqi o'quvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruxlarga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan mashg'ulotlardagi ijodiy jarayon xisoblanadi. Ushbu mashq qo'llanganda dars mashg'lotlarida faol ishtirok etish, bir-biridan o'rganishga va turli nuktai nazarlarini qadrlashga hamda kichik guruxlarda ishlash metodi qo'llanilganda o'qituvchining vaqtini tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki, ushbu mashqda o'qituvchi bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilarni mavzuga jalb etadi va baholay oladi.

**«Kichik guruxlarda ishlash»** mashqida quyidagi ketma-ketlikka amal qilinadi. Ya'ni: Mavzu yoritiladi:

Kichik guruxlar shakllantiriladi;

Ko'rsatma beriladi va yo'naltiriladi;

Muhokama tahlil qilinadi;

Baholanadi.

Quyida interfaol usuldagi VIII-sinf O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanidan namuna keltiramiz:

**Mavzu:** Toshkent iqtisodiy geografik o'rni

**Maqsadi:** O'quvchilarga rayonning geografik o'rni, aholisi soni, maydoni kattaligi, geografik o'rniga xos xususiyatlari, qulayliklari to'g'risida ma'lumotlar berish, bilim, ko'nikmasini rivojlantirish.

**Dars shakli**: noan'anaviy: (interfaol metodi "kichik guruxlarda ishlash" usuli).

**Dars uslubi:** mavzuga oid yangi bilim berish va mustahkamlash, uchrashuv, ma'ruza, ikkita o'quvchi hamkorligidagi guruhlarda ishlash, modulli o'qitish. Test

**Dars jixozi:** Darslik, magnit doska, O'zbekiston iqtisodiy kartasi, 8-sinf atlasi va kontur kartasi, plakat, marker, rangli qalamlar, guruhlar uchun topshiriqlar, baholash uchun rag'bat kartochkalari.

**Darsning borishi:**

**Tashkiliy qism:** Salomlashish, davomatni aniqlash, dars mavzusi bilan tanishtirish, texnik vositalarni darsga tayyorlash. O'quvchilar faoliyatini o'quv topshiriqlarini bajarishga yo'naltirish.

**KICHIK GURUHLARDA ISHLASH QOIDASI**

1. O'quvchilar auditoriyada erkin harakatlana olsinlar va bajaradigan vazifalarini aniq bilishlari lozim
2. Kichik guruh oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi
3. Guruhdagi maslahatchi, sardor, ma'ruzachi, bayonnomachi va rasmiylashtiruvchi aniqlashtirilishi lozim
4. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari uchun o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga yo'riqnoma beriladi

### 1-reja

Iqtisodiy-geografik o'rni va tabiiy boyliklari.

**savol-javob**

1. Toshkent iqtisodiy georafik rayoni joylashuvi.
2. Aholisining soni va milly tarkibi?
3. Iqtisodiy rayonning respublikaning industriallashuvidagi ro'li?
4. Ijtimoiy infratuzilmaning takomillashuvi?
5. Iqtisodiy rayonni boshqa iqtisodiy rayonlarga  qiyosiy tahlili qiling.

**«EKSPERT QOG'OZLARI»**
**topshiriqlar**

**1-guruh:** Iqtisodiy rayon geografik o'rniga xos xususiyatlarini belgilovchi omillar

**2-guruh:** Iqtisodiy rayonning mamlakat miqyosida  ixtisoslashuvi

**3-guruh**: tabiiy boyliklari va ishchi kuchi bilan ta'minlanganlishida boshqa rayonlardan farqlari

**4-guruh:** Iqtisodiy rayon ekologik muvozanatining zo'riqish sabablari, oqibatlari , unga qarshi chora tadbirlari

**Iqtisodiy rayonning ijtimoiy-iqtiosodiy rivojlanishida poytaxtning ta'siri.**




**FSMU: «Kelajakda Toshkent iqtisodiy rayoni o'z iqtisodiy mavqeyini saqlab qola oladimi?, unda qaysi tarmoqlar etakchi soha hisoblanadi?»**

| | |
|---|---|
| **FIKR** ingizni bayon eting: | … |
| Fikringizning bayoniga **SABAB** ko'rsating: | … |
| Fikringiz isbotlashga **MISOL** keltiring: | … |
| Umumlashtirish fikringizni umumlashtiring | … |

Dars jarayonida interfaol usullarni qo'llash jarayonida o'quvchilarning o'zaro muloqotga kirishishini tashkil etish va boshqarishni taqoza etadi, bunda o'quvchilar hamkorlikda izlanib umumiy, shu bilan bir qatorda har bir o'quvchi uchun ahamiyatga molik bo'lgan muammoni hal etishga kirishib ular o'rtasida bir-birini tushunish, hamkorlikda ishlash va hamjihatlik vujudga keladi. Interfaol

usullardan foydalanilgan darslarda bitta o‘quvchining ustunlik qilishi, uning o‘z fikrini o‘tkazishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Interfaol usullar qo‘llanilganida o‘quvchilar tanqidiy fikr yuritish, axborot manbalari va vaziyatni tahlil qilish, murakkab muammoli vaziyatlarni hal etish, o‘rtoqlarining fikrini tahlil qilib, asoslangan xulosalar chiqarish, munozarada ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishish ko‘nikmalarini egallaydi.

## 3.2 O’tkazilgan dars ishlanmasi va natijalar tahlili.

O’zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasidan olib boriladigan dars jarayonida yuqorida keltirib o’tilgan ta’lim texnologiyalarini qo’llash o’qituvchining ish tajribasiga, malaka va ko’nikmalariga bog’liq bo’lib, ulardan foydalanish o’quvchilarni mantiqiy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi hamda takomillashtiradi. Yuqoridagi fikr va ma’lumotlardan kelib chiqqan holda, Pedagogik amaliyot o’tayotgan Toshkent shaxri Sirg’ali tumani 300-“ixtisoslashgan” umumta’lim maktabining 8-sinflarida O’zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasining “Toshkent iqtisodiy rayoni xo’jaligi” mavzusi boyicha tayyorlangan va o’tkazilgan dars ishlanmasi va texnologik xaritasini ko’rib chiqamiz.

**Dars mavzusi:** Toshkent iqtisodiy rayoni xo’jaligi (Toshkent viloyati agrar ishlab chiqarish tarmoqlari misolida ).

I. **Darsning maqsadi:**

1) **Ta’limiy maqsadi:** Toshkent iqtisodiy rayoni-Toshkent viloyati qishloq xo’jaligining ko’p tarmoqliligi, asosan qanday tarmoqlarga ixtisoslashganligi va qanday omillar ta’sirida ekanligi to’g’risida bilim berish, dunyoqarashlarini kengaytirish, kasbga yo’llash.

2) **Tarbiyaviy maqsadi:** Toshkent iqtisodiy rayoni mamlakatimizdagi mavjud iqtisodiy rayonlar ichidagi eng muxim ekanligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida poytaxtning ta’siri ustivor ekanligini o’rgatish orqali milliy iftixor va ekologik tarbiya berish.

3) **Rivojlantiruvchi maqsadi:** Toshkent iqtisodiy rayoni tarkibidagi Toshkent viloyatining agrar sohasidagi yutuqlari, qishloq xo'jaligining kop tarmoqliligi to'g'risidagi va mavzu boyicha olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish malakalarini rivojlantirish, darslik ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini, nutq va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish.

**II. Dars turi:** Noan'anaviy dars.(Interfaol metod)

**III. Dars uslubi:** Yangi bilim berish va mustahkamlash, uchrashuv, ma'ruza, kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash, muammoli o'qitish. Test

**IV. Dars jixozi:** Darslik, O'zbekiston iqtisodiy kartasi, 8-sinf atlasi va kontur kartasi, plakat, marker, rangli qalamlar, guruhlar uchun topshiriqlar, baholash uchun rag'bat kartochkalari.

**V.** Dars bosqichlari: vaqti.

1. Tashkiliy qism…………………………….2 daqiqa
2. Uyga vazifani so'rash……………………...10 daqiqa
3. Yangi mavzu bayoni………………………15 daqiqa
4. Mavzuni mustahkamlash…………………..15 daqiqa
5. Baholash……………………………………2 daqiqa
6. Uyga vazifa berish…………………………1 daqiqa

**Darsning borishi:**

**Tashkiliy qism:** Salomlashish, davomatni aniqlash, dars mavzusi bilan tanishtirish, texnik vositalarni darsga tayyorlash. O'quvchilar faoliyatini o'quv topshiriqlarini bajarishga yo'naltirish.

**VI. Uyga berilgan mavzuni so'rash. Uchrashuv darsi.**

O'qituvchining kirish so'zi, aziz o'quvchilar bugun darsimiz qiziqarli, muammoli savollardan iborat bo'lib, bunda biz kichik guruhlarga ajralib, har bir kichik guruhdagi guruhdosh o'rtoqlaringiz bilan topshiriqlarni hamda uyga berilgan vazifalarni hamkorlikda javob topishga harakat qilasiz.

(O'quvchilarning hohishiga qarab ularga oldindan topshiriqlar beriladi, o'qituvchi ularni bugungi darsga tayyorlaydi)

**1-savol.** Iqtisodiy geografik rayon qanday hosil bo'ladi?

**Javob:** Mehnatning geografik taqsimlanishi asosida o’z ixtisoslashuviga ko’ra bir-biridan farq qiluvchi hududlar-iqtisodiy geografik rayonlar vujudga keladi. Iqtisodiy geografik rayonlar uchun butun mamlakat miqyosida ixtisoslashuv xos bo’lib, mahsulot almashuvi juda keng qamrovda amalga oshadi.

**2-savol**: Mamlakat miqyosida ixtisoslashgan tarmoqni qanday aniqlash mumkin?

**Javob:** Buning uchun dastlab rayondagi aholi sonining butun mamlakat aholisi sonidagi salmog’i aniqlanadi. So’ng rayonda ishlab chiqarilayotgan mahsulot mamlakatda ishlab chiqarilayotgan o’shanday mashg’ulotning necha foizini tashkil etishi aniqlanadi. Nihoyat, bu ko’rsatkich aholi soni bo’yicha ko’rsatkichga bo’linadi. Bo’linma birdan ortiq bo’lsa, bu rayon o’sha mahsulot bo’yicha mamlakat miqyosida ixtisoslashgan hisoblanadi. Formulasi: *M*-rayon mahsulotning mazkur tarmog’i bo’yicha mamlakatdagi salmog’i, *A*-mamlakat aholisi sonida rayon aholisining salmog’i. Izlanayotgan ixtisoslashuv koeffitsientini *K* deb olamiz, $K=M/A$

**3-savol:** Hududiy ishlab chiqarish majmuasi deganda nimani tushunasiz?

**Javob:** Hududiy ishlab chiqarish majmuasi-ishlab chiqarish sohasidagi barcha tarmoqlarga qarashli har hil korxonlarning bir umumiy hududdagi o’zaro bog’langan uyg’unligidir. Iqtisodiy geografik rayonning rivojlanganlik darajasini unda qanday hududiy- ishlab chiqarish majmualari mavjudligi va qay darajada shakllanganidan bilish mumkin.

**4-savol:** O’zbekiston Pespublikasida nechta iqtisodiy geografik rayon mavjud?

**Javob:** O’zbekiston Respublikasida jami sakkizta iqtisodiy geografik rayon mavjud bo’lib ular: Toshkent, Mirzacho’l, Farg’ona, Samarqand, Buxoro-Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo va Quyi Amudaryo iqtisodi geografik rayonlaridir.

**5-savol:** O’zbekiston kelajagi buyukligini asosan qanday omil kafolatlaydi?

**Javob:** Tabiiy boyliklarining xilma-xil va mo’l ko’lligi.

**6-savol**: Agrasanoat majmuasi deganda nimani tushunasiz?

**Javob:**Qishloq xo’jalik mahsulotlarini etishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va istemolchilarga etkazib berish bilan bog’liq xo’jalik tarmoqlarining birligi.

**IV.Yangi mavzu bo`yicha o`qituvchining axboroti:**

**Reja**:

1.Toshkent iqtisodiy rayoni sanoat tarmoqlari

2. Iqtisodiy rayonning qishloq xo'jaligi tarmoqlar

3.Toshkent iqtisodiy rayoninig tashqi aloqasi va transporti

4. Toshkent viloyat qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi

5. Toshkent viloyati agrar ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi.

O`qituvchi yangi mavzuni ko`rgazmali vositalar yordamida bayon etganidan so`ng, o`quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etadi.

**V. O`quvchilarni kichik guruhlarga ajratish hamda o`quv topshiriqlarini mustaqil ravishda sifatli bajarilishiga erishish.**

Mazkur mavzu matni quyidagi mantiqiy tugallangan fikrli qismlarga ajratiladi:

- Donchilik va kanop etishtirish.
- Sabzavotchilik.
- Bog'dorchilik va uzumchilik.
- Go'sht-sut chorvachiligi, parrandachilik va pillachilik.

Shu qismlar bo`yicha o`quvchilarning mustaqil ish topshiriqlari tuziladi:

1- guruh uchun o`quv topshiriqlari

| № | O`quvchilar o`zlashtirishi lozim bo`lgan materiallar yuzasidan o`quv topshiriqlari | Topshiriqni bajarish yuzasidan ko`rsatmalar |
|---|---|---|
| 1.<br>2.<br>3.<br>4. | Toshkent viloyatiagi mavjud tumanlarni o'rganing.<br>Qaysi tumanlarida don mahsulotlari va kanop etishtirilishini aniqlang.<br>Kanop nima? Undan qanday foydalaniladi?<br>Nima uchun ushbu tarmoqlar aynan shu mahsulotlarni etishtirishga ixtisoslashgan? | Darslikdagi matnni o`qib, quyidagi savol-larga javob toping va topshiriqlarni bajaring |

2- guruh uchun o`quv topshiriqlari

| № | O`quvchilar o`zlashtirishi lozim bo`lgan materiallar yuzasidan o`quv topshiriqlari | Topshiriqni bajarish yuzasidan ko`rsatmalar |
|---|---|---|
| 1.<br>2. | Sabzavotchilikka qanday mahsulotlar misol bo'ladi?<br>Toshkent viloyatining aynan qaysi tumanlarida | Darslikdagi matnni o`qib, |

| | | |
|---|---|---|
| 3.<br><br>4. | sabzavotchilik etishtiriladi?<br>Yetishtirilgan sabzavot ekinlari qayerlarga eksport qilinadi?<br>Ushbu tumanlar yana Toshkent iqtisodiy rayoni agrar xo'jaigida qanday ahamiyatlarga ega. | quyidagi savol-larga javob toping va topshiriqlarni bajaring |

3- guruh uchun o`quv topshiriqlari

| № | O`quvchilar o`zlashtirishi lozim bo`lgan materiallar yuzasidan o`quv topshiriqlari | Topshiriqni bajarish yuzasidan ko`rsatmalar |
|---|---|---|
| 1.<br>2.<br><br>3.<br>4. | Bog'dorchilik deganda nimani tushunasiz?<br>Bog'dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan Toshkent viloyati tumanlarini atlasdan topib, kontur kartada belgilang.<br>Bog'dorchilik va uzumchilikni etishtirishda qanday ob-havo bo'lishi kerak deb o'ylaysiz?<br>Viloyatning ushbu tumanlaridan qaysi chet mamlakatlariga mahsulotlar eksport qilinadi? | Darslikdagi matnni o`qib, quyidagi savol-larga javob toping va topshiriqlarni bajaring |

4- guruh uchun o`quv topshiriqlari

| № | O`quvchilar o`zlashtirishi lozim bo`lgan materiallar yuzasidan o`quv topshiriqlari | Topshiriqni bajarish yuzasidan ko`rsatmalar |
|---|---|---|
| 1.<br>2.<br><br>3.<br><br>4. | Sut-go'sht etishtirishga ixtisoslashgan viloyat hududiga kiruvchi tumanlarni aniqlang.<br>Parrandachilik va sun'iy suv havzalarida baliq etishtiradigan tumanlarni atlasdan topib, kontur kartaga belgilang.<br>Nima uchun aynan shu tumanlarda chorvachilik tarmoqlari, parrandachilik va pillachilik yaxshi rivojlanganligini izohlang.<br>Ushbu tumanlarda ijtimoiy soha qanday rivojlangan? | Darslikdagi matnni o`qib, quyidagi savol-larga javob toping va topshiriqlarni bajaring |

b) kichik guruhlar yordamida o`quv materialining yaxlit holda qayta ishlab chiqilishini amalga oshirish.

**V.** O`quvchilar guruhi o`rtasida o`quv bahsi va munozarani tashkil etish;

**VI.** O`quv bahsi va munozara yakuni. O`qituvchi dars davomida o`quv bahsi va munozara keltirib chiqargan muammolar echimidagi asosiy g’oya va tushunchalarni ta`kidlab, xulosalar yasaydi.

**VII.** O`quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash. O`quv baxsi va munozaralarda faol ishtirok etgan o`quvchilar rag’batlantiriladi va reyting tizimiga muvofiq baholanadi.

**VIII.** Uyga vazifa berish.
**IX.** Darsni umumiy yakunlash.

# Xulosa

Amalga oshirilgan izlanishlar natijalariga asoslangan xolda BMIda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O‘zbekiston Respublikasida davlat mustaqilligi davrida milliy iqtisodiyotning asosiy o‘zak tarmog‘i-qishloq xo‘jaligini tiklash va rivojlantirishga, uning tarmoqlar va hududiy tarkibini takomillashtirishga ustun ahamiyat berilib kelinmoqda. Buni Respublikaning qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan me’yoriy-qonuniy hujjatlar to‘la-to‘kis tasdiqlaydi. O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligini oqilona va samarali rivojlantirish borasida davlat mustaqilligi yillarida 104 ta qonun, 867 ta Vazirlar Mahkamasi qarorlari, 428 ta Prezident qarorlari qabul qilingan. Ushbu me’yoriy xujjatlarning ma’lum qismi shahar atrofi xo‘jaligi rivojlantirish, uning tarmoqlar tarkibini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan. Chunonchi “Er kodeksi”, “Qishloq xo‘jalik kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risi”dagi, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15 iyul 1998 yil 300–sonli “Fermer xo‘jaliklari to‘g‘risida”gi, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi, Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 yanvarda “Qishloq xo‘jaligi korxonalarini fermer xo‘jaliklariga aylantirish to‘g‘risida”gi 8–sonli qarorlari shular jumlasidandir.

2. Yer qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy vositasi va predmetidir. Shuning uchun ham shahar atrofi qishloq xo‘jaligida erning ahamiyati

beqiyosdir. Suv resurslari tanqis bulgan hududlarda esa er bilan bir navbatda suv resurslari ahamiyati bebaho hisoblanadi. Toshkent shahri atrofining poytaxtga eng yaqin birinchi xalqasida Zangiota, O‘rta Chirchiq, Qibray va Yuqori Chirchiq tumanlari joylashgan. Ularda qishloq xo‘jaligi erlarining ulushi 33,4 % dan (Qibray tumani) 63,5 % gacha (O‘rta Chirchiq tumani) boradi. Tomorqa erlarining ulushlari 6,5 % dan (Qibray tumani) o‘zgaradi. Bu viloyatning boshqa tumanlariga xos ko‘rsatkichlardan ancha yuqori hisoblanadi.

3. Toshkent mintaqasi O‘zbekistonda ham iqtisodiyoti, ham qishloq xo‘jaligi yuqori darajada rivojlangan hudud hisoblanadi. Bunday holat ko‘p jihatdan Toshkent shahri va uning atrofida mehnat resurslari soni va sifat ko‘rsatkichlari bilan aloqadordir. Mehnat resurslari sifat ko‘rsatkichlari va ularning soni shahar atrofida ishchi kuchini ko‘p talab qiluvchi qishloq xo‘jalik tarmoqlarini rivojlantirishga imkon bermoqda. Bizning tadqiqotlarimiz poytaxt shahar atrofi hududlari mehnat resurslarini soni keragidan ancha ortiq ekanligini ko‘rsatmoqda. Vaholanki, shahar atrofi hududida asosan mehnatni ko‘p talab qiluvchi parnik-issiqxona xo‘jaligi, sabzavotchilik, polizchilik, shuningdek ba’zi- bir dukkakli o‘simliklar etishtirish kabi tarmoqlar rivojlangan.

4. Istiqbolda Toshkent shahri atrofi hududlarida dehqonchilik tarmoqlari qabul qilingan ixtisoslashuvga asoslangan holda rivojlanishda davom etadi. Faqat tabiiy gaz narxining oshishi va undan foydalanish hajmini (ko‘proq eksportga chiqarilayotganligi sababli) limitlashtirilganligi sababli**,** issiqxonalar soni keskin qisqaradi. Buning natijasida issiqxonalarda gul, limon va ko‘chat etishtirish hajmi ham kamayadi. Ularning o‘rniga kartoshka va piyoz etishtirish hajmi oshadi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**


1. O‘zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to‘g‘risidagi» qonuni. T.: «Adolat», 1991
2. O‘zbekiston Respublikasining «Korxonalar to‘g‘risidagi» qonuni. T.: «Adolat», 1991
3. O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlar to‘g‘risidagi» qonuni. T.: «Adolat», 1991
4. O‘zbekiston Respublikasining «Ijara to‘g‘risidagi» qonuni. O‘zbekistonning yangi qonunlari, 4-son, T.: «Adolat», 1993
5. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risidagi» qonuni. O‘zbekistonni yangi qonunlari, 5-son. T.: «Adolat», 1993
6. O‘zbekiston Respublikasining «kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, rag‘barlantirish to‘g‘risidagi» qonuni. «Xalq so‘zi», 22 dekabr 1995
7. O‘zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi to‘g‘risidagi» qonuni. T.: «O‘zbekiston», 1998
8. O‘zbekiston Respublikasining «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risidagi» qonuni. T.: «O‘zbekiston», 1998
9. O‘zbekiston Respublikasining «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risidagi» qonuni. T.: «O‘zbekiston», 1998
10. O‘zbekiston Respublikasining «Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risidagi» qonuni. T.: «O‘zbekiston», 1998

11. 11.«Islohotlar strategiyasi - mamlakat iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishdir». Prezident I.Karimovning Vazirlar Mahkamasining 2002 yil yakunlari va 2003 yildagi asosiy vazifalarga bag'ishlangan yig'ilishida so'zlagan nutqi. «Xalq so'zi», 2003 yil, 18 fevral.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi Farmoni. «Xalq so'zi», 2003 yil 25 mart.
13. Каримов И.А. «Деҳқончилик тараққиёти - фаровонлик манбаи», Т.: «Ўзбекистон», 1995
14. Каримов И.А. «Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида», Т.: «Ўзбекистон», 1995
15. Каримов И.А. «Қишлоқ хўжалиги тараққиёти - тукин хаёт манбаи», Т.: «Ўзбекистон», 1998.
16. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш-давр талаби. Т.: «Ўзбекистон», 1997.
17. Абдурахмонов К., Боев Х. «Бозор иқтисодиёти шароитида мулк шаклларининг ривожланиб бориши» Т.: «Фан», 1992
18. Абдурахмонов К., Боев Х. «Бозор иқтисодиёти шароитида фермер хўжаликлари» Т.: «Ўзбекистон зиёлилар уюшмаси», 1992
19. Мирсаидов М.С. «Тадбиркорлик» Т.: «Ўқитувчи», 1994
20. Махмадиев У. «Деҳқон ва фермер хўжалигининг иқтисоди ва уни ташкил этиш» Ўкув қўлланма, Т.: 1998
21. Усмонов С.Н., Дадабоев Ю. Т. «Деҳканское хозяйство», Тошкент, 1997.
22. Чориев Қ., Беркинов Б. , «Деҳқон ва фермер хўжаликларини ташкил этиш ва юритишнинг хуқуқий - меъёрий асослари», Тошкент, «Шарқ», 2002.
23. Ҳусанов Р.Ҳ. ва бошқалар «АСК иқтисодиёти» Тошкент, 2003
24. Салимов Б.Т., Ортиқов Н.И. «Қишлоқ хўжалиги инфратузилмаси иқтисодиёти». Ўқув қўлланма. Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси, 2004.
25.Солиев А., Назаров М., Қурбонов Ш. Ўзбекистон ҳудудлари ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. – Т.: «МУМТОЗ СЎЗ», 2010.
26. Исмоилов А.К., Муртазаев О. «Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти» Тошкент, «Меҳнат», 2003.
28. Статистический ежегодник регионов Узбекистана. Госкомстат Узбекистана за 2012год. Ташкент 2013г.
29 Тошкент вилояти статистика бошқармаси маълумотлари. 2012-2014 йй.
30. www.stat.uz.
31. www. Ziyonet. uz

**Ilovalar**
**1-ilova**

## Toshkent viloyati qishloq tumanlarining maydoni va aholisi

| | Tumanlar | Tashkil topgan yili | Ma'muriy markazi | Maydoni, ming kv km | Aholisi, ming kishi | Aholi zichligi, kishi/kv.km |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | 2013 yil | |
| 1 | Bekobod | 23.09.1963 | Zafar sh-cha | 0,76 | 143,8 | 194,2 |
| 2 | Bo'ka | 18.05.1943 | Bo'ka sh. | 0,59 | 115,8 | 189,5 |
| 3 | Bo'stonliq | 25.12.1968 | G'azalkent sh. | 4,93 | 160,7 | 30,5 |
| 4 | Zangiota | 01.12.1933 | Keles sh-cha | 0,39 | 352,6 | 813,3 |
| 5 | Ohangaron | 31.12.1971 | Ohangaron sh. | 3,18 | 124,0 | 26,6 |
| 6 | Oqqo'rg'on | 09.02.1935 | Oqqo'rg'on sh. | 0,40 | 96,7 | 240,5 |
| 7 | Parkent | 06.12.1979 | Parkent sh. | 1,08 | 140,0 | 120,9 |
| 8 | Piskent | 07.12.1970 | Piskent sh. | 0,79 | 94,4 | 112,9 |
| 9 | Chinoz | 12.04.1973 | Chinoz sh. | 0,34 | 122,7 | 359,4 |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 10 | Yuqorichirchiq | 29.09.1926 | Yangibozor sh-cha | 0,44 | 123,2 | 269,3 |
| 11 | Yangiyo'l | 29.09.1926 | Gulbahor sh-cha | 0,42 | 249,9 | 401,2 |
| 12 | O'rtachirchiq | 29.09.1926 | To'ytepa sh. | 0,49 | 179,7 | 356,5 |
| 13 | Qibray | 31.12.1964 | Qibray sh-cha | 0,56 | 187,0 | 310,4 |
| 14 | Quyichirchiq | 26.12.1973 | Do'stobod sh. | 0,56 | 100,5 | 175,5 |
| | Shaharlar | | | | 535,2 | |
| | Viloyat | 15.01.1938 | Chirchiq sh. | 15,6 | 2726,1 | 194,4 |

*Izoh: Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.*

**2-ilova**

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish**

| № | Shahar va tumanlar nomi | Qishloq xo‘jaligida yalpi mahsulot | | Jami haydaladigan erlar, ga | shundan: | | Jami ekilgan g‘alla maydoni, ming ga | shundan: | | Donli ekinlar Boshoqli don | | | shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | | | | | | | Boshoqli ekinlar | | |
| | | 2013 yil haqiqatda mln.so‘m | 2012 yil yakuniga nisbatan % da | | Sug‘oriladigan erlar | Lalmikor erlar | | Sug‘oriladigan erlar | Lalmikor erlar | Maydoni, ga | Yalpi hosil ming tn | Hosildorlik, s/ga | Maydoni, ga | Yalpi hosil ming tn | Hosildorlik, s/ga |
| | **Viloyat bo‘yicha** | **3 953 456,0** | **105,9** | **333 840,0** | **324 991,0** | **8 849,0** | **158 758,0** | **149 909,0** | **8 849,0** | **158 758,0** | **740,8** | **44,8** | **137 779,0** | **621,5** | **44,9** |
| | *shaharlar:* | | | | | | | | | | | | | | |
| 1 | Olmaliq | 16 453,7 | 105,9 | 174,0 | 174,0 | | 2,0 | 2,0 | 0,0 | 2,0 | 0,0 | 30,0 | 0,0 | 0,0 | |
| 2 | Angren | 48 183,6 | 105,6 | 2 916,0 | 2 916,0 | | 19,0 | 19,0 | 0,0 | 19,0 | 0,1 | 27,4 | 10,0 | 0,0 | 25,0 |
| 3 | Bekobod | 19 362,0 | 111,0 | 179,0 | 179,0 | | 25,0 | 25,0 | 0,0 | 25,0 | 0,1 | 21,2 | 25,0 | 0,1 | 21,2 |
| 4 | Chirchiq | 24 706,6 | 108,4 | 448,0 | 448,0 | | | | | | | | | | |
| | *tumanlar:* | | | | | | | | | | | | | 0,0 | |
| 5 | Oqqo‘rg‘on | 235 264,2 | 105,2 | 27 549,0 | 27 549,0 | | 10 198,0 | 10 198,0 | 0,0 | 10 198,0 | 59,2 | 53,7 | 9 892,0 | 53,2 | 53,7 |
| 6 | Ohangaron | 149 793,7 | 106,5 | 16 501,0 | 14 814,0 | 1 687,0 | 12 503,0 | 10 816,0 | 1 687,0 | 12 503,0 | 38,5 | 30,8 | 11 094,0 | 33,2 | 29,9 |
| 7 | Bekobod | 322 543,0 | 106,4 | 39 270,0 | 39 270,0 | | 18 464,0 | 18 464,0 | 0,0 | 18 464,0 | 75,0 | 40,6 | 15 020,0 | 60,7 | 40,4 |
| 8 | Bo‘stonliq | 321 234,1 | 107,9 | 14 166,0 | 11 909,0 | 2 257,0 | 6 587,0 | 4 330,0 | 2 257,0 | 6 587,0 | 26,1 | 38,5 | 6 102,0 | 23,3 | 38,2 |
| 9 | Bo‘ka | 194 940,1 | 106,0 | 33 748,0 | 33 603,0 | 145,0 | 15 815,0 | 15 670,0 | 145,0 | 15 815,0 | 65,1 | 40,6 | 14 739,0 | 59,1 | 40,1 |
| 10 | Zangiota | 498 009,7 | 108,4 | 13 794,0 | 13 744,0 | 50,0 | 3 903,0 | 3 853,0 | 50,0 | 3 903,0 | 26,8 | 58,5 | 3 553,0 | 21,1 | 59,3 |
| 11 | Qibray | 319 838,8 | 107,2 | 10 596,0 | 10 596,0 | | 3 769,0 | 3 769,0 | 0,0 | 3 769,0 | 21,3 | 51,1 | 2 799,0 | 17,9 | 57,3 |

| | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 12 | Quyichirchiq | 252 973,1 | 102,2 | 36 817,0 | 36 817,0 | | 18 596,0 | 18 596,0 | 0,0 | 18 596,0 | 104,7 | 52,6 | 14 478,0 | 78,3 | 53,7 |
| 13 | Parkent | 231 071,3 | 106,7 | 11 494,0 | 8 462,0 | 3 032,0 | 5 631,0 | 2 599,0 | 3 032,0 | 5 631,0 | 13,4 | 23,3 | 5 494,0 | 12,6 | 22,9 |
| 14 | Piskent | 220 110,7 | 103,9 | 23 093,0 | 22 793,0 | 300,0 | 10 819,0 | 10 519,0 | 300,0 | 10 819,0 | 62,6 | 52,2 | 9 967,0 | 52,9 | 53,1 |
| 15 | O‘rtachirchiq | 268 266,5 | 107,0 | 31 851,0 | 31 483,0 | 368,0 | 16 115,0 | 15 747,0 | 368,0 | 16 115,0 | 73,3 | 45,5 | 13 818,0 | 62,9 | 45,5 |
| 16 | Chinoz | 269 152,6 | 106,8 | 20 029,0 | 19 829,0 | 200,0 | 8 282,0 | 8 082,0 | 200,0 | 8 282,0 | 43,0 | 50,2 | 7 972,0 | 40,0 | 50,1 |
| 17 | Yuqorichirchiq | 215 215,9 | 108,2 | 23 423,0 | 22 613,0 | 810,0 | 14 162,0 | 13 352,0 | 810,0 | 14 162,0 | 78,1 | 54,2 | 13 466,0 | 73,5 | 54,6 |
| 18 | Yangiyo’l | 301 435,4 | 105,8 | 23 817,0 | 23 817,0 | | 13 868,0 | 13 868,0 | 0,0 | 13 868,0 | 53,5 | 37,5 | 9 350,0 | 32,8 | 35,0 |

*Izoh: Toshkent viloяti statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.*

| № | Шахар ва туманлар номи | Ўртача аҳоли жон бошига кўрсаткичлар, минг.сўм | | | | | | | | | Ўртача бир ойлик иш ҳақи, минг сўм | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | ЯҲМ | Саноат маҳсулолари ишлаб чиқариш | Халқ истеъмоли моллари ишлаб чиқариш | Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш | Чакана савдо айланмаси | Пуллик хизмат | Жами хизматлар | Даромад-лар | Харажат-лар | 2012 й. | 2013 й. |
| | **Вилоят бўйича** | **4 304,6** | **3 320,5** | **932,7** | **1 458,3** | **1 900,2** | **441,5** | **2 259,7** | **x** | **x** | **1 110,2** | **1 254,3** |
| | *шаҳарлар:* | | | | | | | | | | | |
| 1 | Олмалиқ | x | 18 161,1 | 444,9 | 137,4 | 3 403,7 | 731,8 | 5 197,7 | x | x | 1 900,4 | 2 147,0 |
| 2 | Ангрен | x | 1 738,3 | 646,0 | 276,7 | 1 651,9 | 474,4 | 2 791,7 | x | x | 1 000,9 | 1 130,8 |
| 3 | Бекобод | x | 13 130,7 | 773,6 | 218,0 | 3 588,3 | 675,2 | 3 748,4 | x | x | 1 565,2 | 1 768,4 |
| 4 | Чирчиқ | x | 5 443,5 | 1 338,3 | 166,4 | 1 772,8 | 673,9 | 2 750,4 | x | x | 1 098,2 | 1 240,8 |
| | *туманлар:* | | | | | | | | | | | |
| 5 | Оққўрғон | x | 499,1 | 100,8 | 2 451,0 | 2 455,7 | 254,7 | 1 559,9 | x | x | 778,4 | 879,4 |
| 6 | Оҳангарон | x | 5 102,2 | 850,3 | 1 215,9 | 1 604,5 | 306,2 | 2 613,9 | x | x | 886,6 | 1 001,7 |
| 7 | Бекобод | x | 412,1 | 100,9 | 2 261,6 | 899,5 | 266,6 | 1 055,3 | x | x | 719,7 | 813,1 |
| 8 | Бўстонлиқ | x | 1 039,0 | 621,3 | 2 003,7 | 1 423,9 | 431,5 | 1 655,9 | x | x | 894,2 | 1 010,2 |
| 9 | Бўка | x | 415,2 | 85,8 | 1 694,8 | 1 164,0 | 227,7 | 1 089,9 | x | x | 715,2 | 808,0 |
| 10 | Зангиота | x | 3 318,0 | 2 308,6 | 1 420,0 | 2 729,8 | 560,8 | 2 691,4 | x | x | 849,6 | 959,9 |
| 11 | Қибрай | x | 2 880,6 | 2 730,0 | 1 712,0 | 1 079,4 | 618,2 | 3 649,1 | x | x | 1 225,5 | 1 384,6 |
| 12 | Қуйичирчиқ | x | 577,1 | 173,4 | 2 527,5 | 1 196,3 | 269,1 | 1 055,4 | x | x | 783,5 | 885,2 |
| 13 | Паркент | x | 601,9 | 789,6 | 1 665,0 | 1 572,0 | 320,1 | 1 188,9 | x | x | 725,3 | 819,5 |
| 14 | Пискент | x | 421,1 | 153,3 | 2 339,0 | 952,0 | 272,4 | 1 127,9 | x | x | 732,3 | 827,3 |
| 15 | Ўртачирчиқ | x | 767,0 | 306,1 | 1 501,4 | 986,4 | 312,1 | 1 553,5 | x | x | 867,1 | 979,6 |
| 16 | Чиноз | x | 895,2 | 552,3 | 2 206,6 | 870,5 | 412,0 | 1 751,0 | x | x | 906,7 | 1 024,4 |
| 17 | Юқоричирчиқ | x | 930,3 | 500,9 | 1 756,7 | 812,6 | 372,6 | 1 628,7 | x | x | 845,2 | 954,9 |
| 18 | Янгийўл | x | 1 460,1 | 854,9 | 1 212,9 | 3 336,4 | 442,3 | 2 284,9 | x | x | 818,6 | 924,8 |

*Izoh: Toshkent viloяti statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.*

| | Шаҳар ва туманлар номи | Деҳқон хўжаликлари ҳақида маълумот | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Деҳқон хўжаликлари сони бирлик | 2012 йил якунига нисбатан % ҳисобида | шулардан, юридик шахс мақомини олганлар бирлик | 2012 йил якунига нисбатан % ҳисобида | Уларга бириктирилган ер майдони минг га | 2012 йил якунига нисбатан % ҳисобида | Ялпи қишлоқ хўжалик махсулотларига нисбатан деҳқон хўжаликлари улуши % |
| | **Вилоят бўйича** | **417 550** | **73,0** | **3 022** | **108,5** | **62,7** | **91,8** | **58,1** |
| | *шаҳарлар:* | | | | | | | |
| 1 | Олмалиқ | 10 138 | 100,0 | 1 | | 0,7 | 104,1 | 88,8 |
| 2 | Ангрен | 9 732 | 51,1 | | | 1,6 | 97,8 | 95,1 |
| 3 | Бекобод | 10 416 | 100,0 | 3 | 300,0 | 1,0 | 96,4 | 85,5 |
| 4 | Чирчиқ | 10 354 | 100,0 | | | 0,6 | 105,2 | 92,4 |
| | *туманлар:* | | | | | | | |
| 5 | Оққўрғон | 17 805 | 100,1 | 185 | 112,8 | 3,3 | 100,5 | 59,3 |
| 6 | Оҳангарон | 18 500 | 77,6 | 310 | 101,3 | 2,1 | 85,1 | 66,2 |
| 7 | Бекобод | 27 035 | 100,0 | 414 | 118,3 | 5,5 | 100,8 | 65,5 |
| 8 | Бўстонлиқ | 29 040 | 100,0 | 1 | 100,0 | 3,5 | 99,3 | 63,4 |
| 9 | Бўка | 22 066 | 100,0 | 384 | 113,3 | 4,7 | 99,3 | 64,2 |
| 10 | Зангиота | 58 914 | 109,8 | 121 | 102,5 | 7,7 | 99,6 | 54,8 |
| 11 | Қибрай | 26 055 | 100,0 | 38 | 95,0 | 3,9 | 100,8 | 43,4 |
| 12 | Қуйичирчиқ | 24 307 | 100,0 | 133 | 108,1 | 3,5 | 101,2 | 46,7 |
| 13 | Паркент | 23 000 | 1,0 | 453 | 102,5 | 3,3 | 98,7 | 57 |
| 14 | Пискент | 17 459 | 100,0 | 233 | 123,3 | 3,6 | 100,2 | 56,9 |
| 15 | Ўртачирчиқ | 31 464 | 94,5 | 117 | 104,5 | 4,7 | 99,4 | 60,9 |
| 16 | Чиноз | 21 341 | 99,7 | 189 | 111,2 | 3,3 | 103,5 | 53,2 |
| 17 | Юқоричирчиқ | 23 473 | 104,9 | 327 | 103,2 | 3,3 | 99,5 | 57,7 |
| 18 | Янгийўл | 36 451 | 100,0 | 113 | 100,9 | 6,4 | 100,0 | 51,7 |

*Izoh: Toshkent viloяti statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.*

**Fermer xo'jaliklari haqida ma'lumot** 5-ilova

| № | Shahar va tumanlar nomi | Fermer xo'jaliklari | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 2013 yil yakuni bo'yicha fermer xo'jaliklari soni, birlik | 2012 yil yakuniga nisbatan % hisobida | Viloyatda yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlariga nisbatan fermer xo'jaliklari ulushi, % |
| | **Viloyat bo'yicha** | **6 192** | **100,2** | |
| | *shaharlar:* | | | |
| 1 | Olmaliq | 2 | 100,0 | 8,1 |
| 2 | Angren | 10 | 100,0 | 3,4 |
| 3 | Bekobod | | | 0,0 |
| 4 | Chirchiq | | | 0,0 |
| | *tumanlar:* | | | |
| 5 | Oqqo'rg'on | 366 | 100,0 | 40,1 |
| 6 | Ohangaron | 427 | 100,0 | 26,0 |
| 7 | Bekobod | 462 | 100,0 | 33,8 |
| 8 | Bo'stonliq | 295 | 84,5 | 34,6 |
| 9 | Bo'ka | 556 | 106,5 | 35,0 |
| 10 | Zangiota | 498 | 100,2 | 36,0 |
| 11 | Qibray | 383 | 100,0 | 28,7 |
| 12 | Quyichirchiq | 447 | 102,3 | 47,7 |
| 13 | Parkent | 791 | 100,4 | 39,8 |
| 14 | Piskent | 323 | 100,9 | 41,9 |
| 15 | O'rtachirchiq | 314 | 100,0 | 33,1 |
| 16 | Chinoz | 228 | 103,6 | 44,5 |
| 17 | Yuqorichirchiq | 340 | 103,0 | 40,4 |
| 18 | Yangiyo'l | 750 | 100,0 | 46,5 |

*Izoh: Toshkent viloяti statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.*